Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash deganda nafaqat mamlakatda mavjud resurslardan unumli va oqilona foydalanish, balki fan-texnika

yutuqlariga asoslangan holda, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini maksimal qondirish tushuniladi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya, veterinariya, fitosanitariya normalari va qoidalariga mosligi ham ahamiyatga molik hisoblanadi.

Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi – bu Britaniyaning Economist Intelligence Unit tadqiqot kompaniyasi tomonidan e'lon qilingan global so'rov va dunyo mamlakatlari oziq-ovqat xavfsizligi reytingi. Tadqiqot 2012-yildan beri olib borilmoqda va hozirgi vaqtda dunyoning turli mamlakatlarida oziq-ovqat xavfsizligi holatining eng to'liq ko'rsatkichlari to'plamidir⁶.

Oziq-ovqat xavfsizligi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda 1996-yilgi jahon oziq-ovqat sammitida oziq-ovqat xavfsizligi tarifi qo'llaniladi: Oziq-ovqat xavfsizligi – bu har qanday vaqtda mamlakatdagi barcha odamlar o'zlarining ehtiyojlarini qondiradigan va oziq-ovqat uchun zarur bo'lgan yetarli va to'yimli oziq-ovqatga jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy kirish imkoniyatiga ega bo'lgan shartdir faol va sog'lom hayot.

Ushbu indeks davlatlar siyosati va ularning oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi faoliyatini o'lchaydi. Tadqiqotda dunyo mamlakatlari oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlarining uchta asosiy guruhi tahlili keltirilgan:

1. Oziq-ovqatning mavjudligi va iste'molga yaroqliligi.
2. Oziq-ovqatning mavjudligi va yetarliligi.
3. Oziq-ovqat sifati va xavfsizlik darajasi.

Ushbu toifalar 28 xil ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi, ularning qiymatlari ikki yillikda o'lchanadi. Hisoblashda xalqaro tashkilotlar va milliy institutlar ma'lumotlaridan foydalaniladi. Ko'rsatkichlar tahlili asosida oziq-ovqat xavfsizligi indeksi bo'yicha dunyo davlatlarining yakuniy reytingi tuziladi. Mamlakatning reytingdagi yuqori o'rni uning oziq-ovqat xavfsizligi yuqori darajada ekanligini bildiradi.

Indeksni shakllantirish metodologiyasining batafsil tavsifi va ma'lumotlar manbalari keyingi qiyosiy tadqiqot natijalari bo'yicha e'lon qilingan hisobotda keltirilgan. Tadqiqot qamrab olingan har bir iqtisod uchun hisobotda indeksni hisoblashda qo'llanilgan tahlillar asosida aniqlangan reytingdagi umumiy o'rin hamda individual afzalliklar va kamchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, turli ko'rsatkichlar bo'yicha reyting jadvallari bilan batafsil statistik bo'lim mavjud.

⁶ Ангелина И.А., Салита С.В. Оценка конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности: методический аспект. ISSN 2519–2019 Вестник института экономических исследований 2018, № 4(12).

Dunyo davlatlarining oziq-ovqat xavfsizligi reytingi⁷

Reyting	Davlat Nomi	Indeks
1	Finlandiya	85.3
2	Irlandiya	83.8
3	Niderlandiya	79.9
4	Avstriya	79.4
5	Chexiya	78.6
83	O'zbekiston	50.9
109	Syerra-Leone	37.0
110	Malavi	36.7
111	Zambiya	36.6
112	Sudan	36.0
113	Yaman	35.7

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, dunyo mamlakalarida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun intilish kurashi olib davom etmoqda. Ushbu reytingda 2020-yil uchun eng yuqori o'rinda Finlandiya davlati 85.3 ball bilan yuqori o'rinni band etgan bo'lsa, mamlakatimiz 83-o'rinni 50.9 ball bilan band etganini ko'rishimiz mumkin, eng quyi o'rinlarni esa Yaman davlati 35.7 ball bilan egallaganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash uchun sanoat korxonalarini faoliyatining boshqaruv mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagilar muhim hisoblanadi.

- bo'linmalar va mansabdor shaxslar tomonidan vazifalarni muvofiqlashtirish va ularni bajarish ketma-ketligi;
- moliyaviy-iqtisodiy faoliyat, ichki va tashqi muhit holati aks ettirilgan rivojlangan axborot tizimi;
- mehnat resurslarini boshqarish siyosatini takomillashtirish, xususan, korxonalar va uning ishchilari maqsadlarining birligini ta'minlash vositasi sifatida mehnat motivatsiyasi;
- sifat menejmentini joriy etish, operatsion faoliyatni ISO:9001 standartlariga muvofiq sertifikatlash;
- bozor talablariga, raqobatdorga nisbatan joylashishni aniqlash maqsadlariga muvofiq ishlab chiqariladigan tovarlar assortimentini diversifikatsiya qilish;
- investitsion va innovatsion faoliyatni faollashtirish;
- ichki va tashqi muhitning xavf omillarini, shuningdek, ularning raqobat tahdidlarining kuchayishiga ta'sirini aniqlash va tahlil qilish;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Н.Шаталова. Особенности формирования стратегии устойчивого развития предприятий пищевой промышленности. Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент № 2, 2020.
2. Ангелина И.А., Салита С.В. Оценка конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности: методический аспект. ISSN 2519–2019 Вестник института экономических исследований 2018, № 4(12).
3. Беленов О.Н. Конкурентоспособность стран и регионов / О.Н. Беленов, А.А. Анучин. – М.: КНОРУС, 2015. – 148 с., Шелудько, Е.Б. Конкурентоспособность предприятия: сущность, факторы и принципы / Е.Б. Шелудько // Научно-методический электронный журнал «Концепт». 2016. – № 56.

– inqiroz hodisalari ehtimolini baholash;

– boshqaruv tizimlari va ichki nazoratning realligini baholash⁸.

Aholini xavfsiz oziq-ovqat bilan ta'minlash alohida ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega. Odamlarning taqdiri asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz va yetarli darajada tibbiy ta'minlanish qanday yo'lga qo'yilganiga bog'liq. Aholining oziq-ovqatlanishining yomonlashishi demografik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, ijtimoiy va mintaqalararo keskinlikni oshiradi va davlatning ichki xavfsizligiga tahdid soladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda sanoat korxonalarini faoliyatining mavjud mexanizmining puxta ishlanganligi va uning iqtisodiyotdagi ulushi va salmog'ini kengayishi natijada esa aholini xavfsiz va sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlanishiga olib keladi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini o'z faoliyatini va uning rentabelligini baholash uchun tarkibiga nafaqat moddiy faoliyat samaradorligi balki, ichki resurslar salohiyati samaradorligini oluvchi oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatining iqtisodiy faoliyatining integral ko'rsatkichidan foydalanish tavsiya etiladi.

Bu kabi korxonalarining boshqaruv tizimini strategik maqsadlariga muvofiqligini ta'minlash, uning bozorda mavjudligini saqlab qolish yoki raqobatbardosh pozitsiyalarni mustahkamlash ushbu sanoatni bugungi raqobat kurashida va xavfsiz oziq-ovqat ishlab chiqarishda eng dolzarb masala hisoblanadi.

4. Ziyavitdinova N.M. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini iqtisodiy samaradorligini oshirish. Diss. i.f.n. Bux oz.ov YeSTI 155 b. B. – 2006.
5. Umarov I.Y. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Diss. i.f.n. AMII 149 b. A. – 2009
6. Полухин А.А. Организационно-экономический механизм модернизации сельского хозяйства России/ А.А. Полухин// Аграрная Россия. – 2012 - №5 с. 23-29
7. Turgunov, M. (2021). Issues of innovative approach and financing of innovative projects in rapid economic development. Экономика и социум, (7), 151-159.

⁷ <https://gtmarket.ru/ratings/global-food-security-index>

⁸ Беленов О.Н. Конкурентоспособность стран и регионов / О.Н. Беленов, А.А. Анучин. – М.: КНОРУС, 2015. – 148 с., Шелудько, Е.Б. Конкурентоспособность предприятия: сущность, факторы и принципы / Е.Б. Шелудько // Научно-методический электронный журнал «Концепт». 2016. – № 56.



MEHNAT BOZORINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Tashpulatov A.

Farg'ona politexnika instituti
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida dots.ntl,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSs)
a.tashpulatov@ferpi.uz
Telefon: + 998 97 966 36 90

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-sentabr 2023-yil
Tasdiqlandi: 26-sentabr 2023-yil
Jurnal soni: 8
Maqola raqami: 7
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.798>
KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

qishloq mehnat bozori, ishchi kuchiga talab va taklif, marketing tadqiqotlari, kadrlar marketingi, marketing dasturi.

ANNOTATSIYA

Maqolada qishloq aholisining ish bandligini ta'minlashda marketing tadqiqotlaridan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Mehnat bozorida marketing tadqiqotlarini tashkil etish va o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olingan. Marketing tadqiqotlarida ishchi kuchiga ta'sir etuvchi omillar muhim belgilari bo'yicha guruhlangan. Farg'ona viloyati qishloq tumanlaridagi bandlik va ishsizlik holatini dinamik tahlil qilish asosida tuman va sanoat korxonalarini miqyosida ishchi kuchiga talab va taklifni muvofiqlashtirish hamda aholi bandligini oshirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish. Iqtisodiyotni raqamlashtirish va innovatsion rivojlantirish sharoitida mavjud resurslarning taqsimoti bozordagi narx va raqobat muhitida amalga oshiriladi. Iqtisodiy nazariyadan ma'lumki, ishchi kuchi o'ziga xos tovar sifatida bozorda oldi-sotdi obyekt bo'lib gavdalanadi. Mazkur tovarning o'ziga xosligi xaridor va sotuvchi o'rtasida insonning jismoniy va aqliy qobiliyatidan vaqtinchalik qo'llanilishida aks etib, bunda tovarning moddiy, moliyaviy yoki boshqa shakli namoyon bo'lmaydi. Iqtisodiy resurs nuqtayi nazaridan ishchi kuchining bozordagi xaridor va uni taklif etuvchilar o'rtasida ayirboshlanishida raqobat hamda ishchi kuchining bahosi ta'sirida tarkibiy va tuzilmaviy nomutanosiblik muammosini vujudga keltiradi. Mazkur muammoni hal etishda boshqa tovar bozorlarida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinayotgan kadrlar marketingi imkoniyatlaridan samarali foydalanish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14 iyuldagi PQ-3856-son "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida mamlakatda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirish, bo'sh va kvotalanadigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rilayotganligiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, mazkur me'yoriy hujjatda hududlardagi mehnat bozorida hali-hamon yuqori darajada keskinlik saqlanib qolmoqda, doimiy ish o'rinlarini tashkil etish, yoshlar, xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari bandligini, ayniqsa, qishloq joylarda ta'minlash, shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish masalalari hal etilmayotganligi ta'kidlab o'tilgan. Jumladan: "Ishlab chiqarish kadrlari ko'pincha iqtisodiyot tarmoqlarining joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini, ularning imkoniyatlari va resurslarini hisobga olmagan holda kasbga qayta tayyorlanmoqda. Oqibatda mehnat bozorida ayrim mutaxassisliklar bo'yicha malakali kadrlar taqchilligi kuzatilmoqda".

Iqtisodiyot tarmoq va sohalarini uchun malakali va zarur bo'lgan kadrlar bilan ta'minlashda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Mehnat bozorida marketing tadqiqotlarini tashkillash va o'tkazish tovarlar bozorida jarayonlardan bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu jihatlar marketing tadqiqotlarining predmeti, objekti, usuli va mehnat bozoringa o'ziga xos xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Mehnat bozorida ishchi kuchining taklifi va unga bo'lgan talabni marketing tadqiqotlari yordamida tadqiq etish masalalari bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan. Mehnat bozorini ilmiy tadqiq etish yo'nalishidagi yondashuvlarning asosiy qismi mamlakat va uning hududlari miqyosida ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbatni o'rganishga qaratilganligida o'z aksini topgan.

Korxonalar miqyosida kadrlar marketingini keng va qamrovli yuritish masalalari rus olimi Krilov A.O. tomonidan ilgari surilgan bo'lib, bunda mahalliy miqyosida mehnat bozorini marketing yordamida tadqiq

etishni uning asosiy tashkil etuvchilari kesimida bosqichma-bosqich amalga oshirish tavsiya etilgan [Krilov, 2013].

Tadqiqotchi Malseva A.V mehnat bozori holatini va dinamikasini tahlil etish masalasida marketing tadqiqotlarini bozorni segmentlash uslubiyoti, bu jarayonda matematik modellashtirish va algoritmlash mexanizmlarini taklif etgan Malseva, 2012].

Mehnat bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazishga ilmiy yondoshuv tizimli tahlil va kompleks yondoshuv bilan bir qatorda ekspert baholash va o'yinlar nazariyasi elementlaridan ham foydalanishni nazarda tutadi. Xususan, Dots.nko S.I. o'z tadqiqotlarida: "...ikki yoqlama ochiq bozorlarda samarali yechimni aniqlashda Geyl-Shepli modelining hosilasi bo'lgan usuldan foydalanish"ni tavsiya etgani holda uning optimal va samarali yechimlarga olib kelishini tadqiq etgan Dots.nko, 2014].

O'zbekistonda mehnat bozorida kadrlar marketingi asoslari va instrumentlaridan foydalanish masalalariga bag'ishlangan dastlabki ilmiy ishlar iqtisodchi olim Xolmo'minov Sh.R. tomonidan ishchi kuchiga talab va taklif hamda ularning o'rtasidagi nisbatni aniqlash yordamida tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda mehnat bozorida kadrlar marketingi imkoniyatlaridan o'z faoliyatini tashkil etish va yuritishda ish beruvchilar, tadbirkorlar, ish bilan bandlikka ko'maklashish markazlari hamda idoralari keng foydalanishlari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan Xolmuminov, 2016].

Mehnat bozori infratuzilmasining tarkibiy elementlari sifatida talqin etgan Arabov N. o'z tadqiqotlarida asosiy yondashuv sifatida "kadrlar marketingini bir necha bosqichlarda tadqiq etish tavsiya etilgan bo'lib, birinchi bosqichda asosiy e'tibor mehnat vositachiligi, kasbga yo'naltirish va kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, moliya, marketing, axborotlar, me'yoriy-huquqiy asoslarga qaratilishi" lozimligi ko'rsatilgan (Arabov, 2017).

Mamlakatimizda yana bir olim Isamuxamedov B. o'z tadqiqotlarida kadrlar marketingi bilan bog'liq tadqiqotlarda mazkur muammoning mohiyati ochib berishda asosiy e'tiborni ish o'rinlariga talabgorlar ish beruvchilarning talablariga, bo'sh ish o'rinlari esa ish qidiruvchilarning talablariga to'liq mos kelmasligiga qaratib o'tgan (Isamuxamedov, 2016). Muallifning fikricha: "Bozordagi ishchi kuchi tomonidan qilingan taklif ish beruvchining talab va ehtiyojlariga muvofiq kelmaydi, buning oqibatida mehnat bozoringa barcha ishtirokchilari zarar ko'rishiga olib kelinadi. Ish beruvchilar zarur bo'lgan malakaga ega kadrlarni tanlab olishda qiyinchilikka duch kelsa, mutaxassis va o'z kasbini egallari munosib ishini topish imkoniyatiga to'liq ega bo'lmaslik holati kuzatilmoqda. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalari asosiy e'tiborini mehnat va ta'lim xizmatlari bozorlaridagi vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilishi" maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, tizimli yondashuv, statistik kuzatish, iqtisodiy-matematik modellashtirish, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash, tahlil va sintez hamda sotsiologik va statistik so'rovnomalar usullari qo'llanildi. Ushbu tadqiqotning uslubiy asosini mehnat bozorini tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil etgani holda uning axborot manbalari

sifatida rasmiy statistik nashrlarning ma'lumotlari, statistik hisob-kitob natijalari hamda mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlaridan foydalanilgan. Mehnat bozorini o'rganishlar davomida respublika va uning alohida olingan hudularida ishchi kuchi taklifi va unga bo'lgan bozordagi ehtiyojni aniqlashda marketing tadqiqotlari va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan bog'liq muammolar va ularni yechimini aniqlash yo'llari aniqlandi.

Natijalar va muhokama. Hozirgi paytda statistik ma'lumotlar qishloq joylarida ishchi kuchining ish bilan bandligi holatini, shuningdek, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifi to'liq ifodalay olmayapti. Chunki, qishloq iqtisodiyoti korxonalarida mavjud ish joylarini hisobga olishning maqbul metodikasi yetarlicha takomillashmaganligidan ishchi kuchiga bo'lgan talab miqdorini aniqlash hamon murakkabligicha qolmoqda. Bunday muammolarni yechishda kadrlar marketingi tadqiqoti asoslarini keng qo'llash ijobiy natijalar beradi.

Mehnat bozorida kadrlarga bo'lgan talabni marketing nuqtayi-nazaridan tadqiq etishda asosiy e'tibor talab qilinadigan ishchi kuchining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini ish beruvchining ehtiyojlariga

muvofiqligini aniqlashga qaratiladi. Ishchi kuchi taklifida esa ish o'ri, mehnatga haq to'lash, ish sharoitlari kabi ko'rsatkichlari tadqiq etiladi.

Mehnat bozorini marketing tadqiqotlarida ishchi kuchiga talab va taklifning holatini aniq baholash va dinamikasini aniqlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bunda ishchi kuchiga talab, uning taklifi hamda ular o'rtasidagi nisbatga ta'sir etuvchilarni alohida-alohida tadqiq etishni aniqlash ular o'rtasidagi nisbatga ta'sir etuvchi omillarni guruhlash yordamida o'rganish tavsiya etiladi.

Marketing tadqiqotlarini o'tkazishda demografik omillar o'z ichiga aholining tarkibiy tuzilishi, tabiiy ko'payishi, harakati, migratsiyasi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlarning holati hamda dinamikasini tahlil etishni nazarda tutadi. Ishchi kuchining taklifining iqtisodiy omillari tarkibiga asosan ishchi kuchi qiymati, mehnat unumdorligi, malaka darajasi va boshqalar kiradi. Ijtimoiy omillar sifatida mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lmagan aholi qatlami, xususan, yoshlar, xotin-qizlar, ishsizlar, mehnatga layoqatli nogironlar va boshqalarni tadqiq etish nazarda tutiladi (1-rasm).



1-rasm. Mehnat bozori marketing tadqiqotlarida ishchi kuchi omillari* (*muallif tomonidan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan).

Ishchi kuchining talab omillarini marketing nuqtayi nazaridan tadqiq etishda asosiy ko'rsatkichlari sifatida tarmoq va sohalar bo'yicha investitsiyalar va kreditlar, texnik-texnologik va tarmoq-tuzilmaviy o'zgarishlar ta'sirida yangi barpo etilayotgan hamda qisqartirilayotgan ish o'rinlariga e'tibor qaratiladi. Bunda ish o'rinlari kasblar va mutaxassisliklar kesimida o'rganish zarur bo'ladi.

Xalqaro mehnat tashkilotining me'yoriy-uslubiy ko'rsatmalarida keltirilgan bandlikning no'anaviy turlarini tan olish va mehnat bozorini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimida foydalanish tavsiya etilgan. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: vaqtinchalik bandlik, ish kuni to'liq bo'lmagan bandlik, ishchi kuchi lizingi, chaqiruv bo'yicha ishlash, o'zini-o'zi band qilishning boshqa turlari.

Hududiy mehnat bozori uchun qishloq aholisini ish bilan ta'minlash ko'rsatkichlarini oshirishda o'z-o'zini band qilishning an'anaviy shakllari bo'lgan tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilik va boshqalar bilan bir qatorda zamonaviy ish o'rinlari hisoblangan virtual bandlik, frilansing, rekruting, auntsoring, yetkazib berish xizmati, shaxsiy mehnat va shu kabi shakllaridan ham samarali foydalanish mumkin.

Mehnat bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish asosida ishchi kuchining taklifi, unga bo'lgan talab va ular o'rtasidagi muvozanat hamda nisbatni ifodalovchi ko'rsatkichlarni marketing vositalari yordamida o'rganish ifodalanadi. Tadqiqotlarning pirovard natijasida ish beruvchi,

ishchi kuchi va davlatning mehnat bozorida uzoq va qisqa muddatli istiqbolda ustuvor yo'nalishlarni aniqlash yuzasidan samarali qarorlar qabul qilishning axborot bazasi shakllanadi. Marketing tadqiqotlarini kasblar va mutaxassisliklar kesimida mos ravishda mezodarajada – tarmoq yoki tumanlar miqyosida hamda mikrodarajada – korxonalar va xo'jaliklar bo'yicha o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish jarayoni bir necha bosqichlarda bo'lishi mumkin. Ushbu jarayonning asosiy bosqichlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: masalani qo'yilishi va vazifalarni aniqlash; axborot manbalarini aniqlash va ma'lumot to'plash; to'plangan ma'lumotlarni statistik qayta ishlash va tahlil qilish va xulosalar tayyorlash.

Qishloq mehnat bozorining marketing tadqiqotlarini maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda ikki darajada, ya'ni mezodarajada va mikrodarajada tashkil etish maqsadga muvofiq. Birinchi holatda tuman yoki tarmoq miqyosida ishchi kuchiga talab va taklifning holati marketing vositalaridan foydalanib o'rganiladi. Shahar va tumanlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar miqyosida maqsadli marketing tadqiqotlari ishchi kuchiga talab va taklifning aniq parametrlarini aniqlashga yordam beradi.

Korxonalar miqyosida marketing tadqiqotlarini o'tkazishning namunaviy dasturini quyidagi jadval asosida ifoda etish tavsiya etiladi.

Korxonalarda ishchi kuchiga talab va taklifning marketing tadqiqotlarini o'tkazish dasturi

№	Marketing elementlari	Bajariladigan ishlar mazmuni
1.	Tadqiqot obyekti	<ul style="list-style-type: none"> Viloyatning alohida olingan tumanlaridagi korxonalar va tashkilotlar; Qishloq joylardagi fermer xo'jaliklari; Qishloq joylardagi uy xo'jalilari
2.	Tadqiqot ishtirokchilari	<ul style="list-style-type: none"> Korxonalar va xo'jaliklarning marketing xizmati; Hududda joylashgan muassasalarning marketing mutaxassislari; Bandlik idoralarning xodimlari; Coworking markazlari va mehnat guzarlari
3.	Qo'llaniladigan uslublar	<ul style="list-style-type: none"> Statistik tahlil; Omili tahlil; Ekspert baholash;
4.	Axborot yig'ish usuli	<ul style="list-style-type: none"> Satistik hisobot; anketa; so'rovnoma
5.	Tadqiqotlarda qo'llaniladigan ishchi kuchi omillari	<p>Ishchi kuchi taklifi omillari:</p> <ul style="list-style-type: none"> Malaka darajasi, kasbiy tayyorgarligi, mutaxassisligi ishchi kuchi soni; Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari; Talab qilinadigan ish haqi; Yoshlar, xotin-qizlar, nogiron va raqobatbardosh bo'lmagan ishchi kuchi taklifi. <p>Ishchi kuchiga talabning omillari:</p> <ul style="list-style-type: none"> Tarkibiy omillar (ma'lumotlar va malaka talab qiladigan ish o'rinlari soni); Texnik-texnologik (ilmtalab ish o'rinlari, masofaviy bandlik va b.) Tarmoq-tuzilmaviy (kadrlarni tabiiy yangilanish darajasi va dinamikasi, kadrlar qo'nimsizligi va b.) <p>Ishchi kuchiga talab va taklif nisbatining omillari:</p> <ul style="list-style-type: none"> Tashkiliy-huquqiy (mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori, ishsizlik nafaqasi, kafolatlangan ish o'rinlari); Ilmiy-innovatsion (biznesni ochiqlik darajasi, oliy va kasb ta'limi dinamikasi, kasbga tayyorlash markazlari soni va b.) Me'yoriy-uslubiy (me'yorlashtirilgan ish o'rinlari, huquqiy himoya, kambag'allik darajasi)
6.	Marketing tadbirlari muddatlari	<ul style="list-style-type: none"> Ishchi kuchiga talab bo'yicha yagona interaktiv elektron sahifalar faoliyatini yuritish –muntazam. Tarmoq va soha miqyosida statistik hisobotlar asosida ishchi kuchi taklifini yosh, jins, kasb-mutaxassisliklar kesimida tahlili va istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlash – doimiy har chorakda; Korxonalar, tashkilot, muassasalarda mehnat yarmarkalarini o'tkazish – doimiy, har chorakda. Korxonalar yondosh hududlarda ishchi kuchi taklifi bo'yicha sotsiologik so'rovnomalarni o'tkazish – doimiy, har chorakda. Viloyat miqyosida tarmoq va sohalar kesimida kasb-mutaxassislilar bo'yicha talab va taklif nisbati va uning dinamikasi yuzasidan hisobot va takliflar tayyorlash – doimiy, yil boshiga.
7.	Marketing tadqiqotlarini o'tkazishning chegaraviy xarajatlari	Eng kam ish haqining 5 baravaridan 25 baravarigacha

Marketing tadqiqotlarini o'tkazish ko'lami, muddati va davriyligi uni o'tkazish uchun zarur bo'lgan xarajatlarning umumiy qiymatiga ta'sir ko'rsatadi.

Marketing tadqiqotlari olinadigan axborotlarni tahlil qilishda bir qator usullardan foydalanish mumkin: statistik tahlil, omili tahlil va ekspert baholash. Jumladan, ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj va uning taklifining demografik omillariga quyidagilarni kiritish mumkin: mehnatga layoqatli tuman aholi soni dinamikasi; mehnat yoshidagi mehnatga layoqatli aholining jinsi, yoshi, ma'lumot darajasi bo'yicha tarkibiy tuzilishi dinamikasi; tuman miqyosida ishchi kuchi migratsiyasi; tuman bo'yicha rasmiy ishsizlar soni dinamikasi; ishchi kuchiga talab dinamikasi;

Marketing tadqiqotlari natijasida olingan ma'lumotlar hisobotlar o'z aksini topishi lozim. Hisobot bo'yicha mehnat bozori holatni yaqin istiqbolda muvozanatini ta'minlash yuzasidan takliflarda o'z ifodasini topadi. Farg'ona viloyati va uning tumanlari kesimida xodimlarga bo'lgan talab va uning taklifini muvofiqlash hamda aholi bandligi dinamikasini ta'minlashda marketing tadqiqotlari yordamida to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish va dinamik tahlil etish muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur bosqichda ishchi kuchining samarali bandligini ta'minlash yuzasidan yakuniy qaror qabul qilishda zarur bo'lgan axborot bazasi tayyorlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar

o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirishni har tomonlama tahlil qilish, sifatli va xolis baholash, ayniqsa, mehnat bozoriga ilk bor kirib keluvchi mehnatga layoqatli yoshlar, aholi bandligini ta'minlash dasturi samaradorligini oshirish vazifalarini hal etish belgilangan. Mazkur qarorga muvofiq masalalar qo'yilgan maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish hisobot va prognoz balanslarining ijrosi monitoringi, tahlili, baholanishi tizimini ishlab chiqish belgilangan.

Qishloq aholisining bandligini kadrlar marketingi yordamida tadqiq etish mehnat bozori konyukturasini o'rganish, malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni aniqlash, ulami hudud miqyosida tayyorlash, malakasini oshirish va ishchi kuchi eksportini amalga oshirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Ishchi kuchi eksportida asosiy e'tiborni mehnat bozori talablariga muvofiq bo'lgan zamonaviy kasb va malakaga ega bo'lganlar salmog'ini oshirishga qaratish muhim ahamiyatga ega. Qishloq joylarida mehnat salohiyatida to'liq va unumli foydalanish mehnat bozorida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yumshatishga, ortiqcha ishchi kuchining ish bilan bandlik ko'rsatkichlarini barqaror o'sishiga, aholining turmush

darajasi va daromadlik darajasini oshirishga hamda ishsizlik va kambag'allikni keskin kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Mehnat bozoridagi ishchi kuchiga taklif va talabni o'rganish yuzasidan o'tkazilgan marketing tadqiqotlari natijasida olingan tahliliy materiallar va natijalarga oid tegishli axborotlarni o'z ichiga olgan va batafsil yoritilgan hisobotlarda o'z aksini topishi lozim. Hisobot yakunida mehnat bozoridagi holatni yaqin istiqbolda muvozanatini ta'minlash yuzasidan olingan xulosalar, ilmiy asoslangan tavsiya va takliflar o'z ifodasini topgan bo'lishi lozim.

Tuman miqyosida ishchi kuchiga talab va taklifni muvofiqlash hamda aholi bandligi dinamikasini ta'minlashda marketing tadqiqotlari yordamida to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish va

dinamik tahlil etish muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur bosqichda ishchi kuchining samarali bandligini ta'minlash yuzasidan yakuniy qaror qabul qilishda zarur bo'lgan axborot bazasi shakllanadi.

Qishloq aholisining bandligini kadrlar marketingi yordamida tadqiq etish mehnat bozori konyukturasini o'rganish, malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni aniqlash, ularni hudud miqyosida tayyorlash, malakasini oshirish va ishchi kuchi eksportini amalga oshirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Qishloq joylarida mehnat salohiyatida to'liq va unumli foydalanish mehnat bozoridagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yumshatishga, ortiqcha ishchi kuchining ish bilan bandlik va daromadlik darajasini oshirishga hamda ishsizlik va kambag'allik ko'rsatkichlarini keskin kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Абдурахмонов К.Х., (2019). Экономика труда. Теория и практика: учебник: в 2 ч./ К.Х.Абдурахманов. – М.: ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г.В.Плеханова».

2. Arabov. N., (2017). Samarqand davlat universiteti. Mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va tamoyillari. 27.02.2017 №2 (110)-2017. Internet manzil: <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/46523--mehnat-bozori-infratuzilmasi-rivojlanishining-ijtimoiy-iqtisodiy-ahamiyati-va-tamoyillari>

3. Доценко С.И., (2014). Вектор Шепли как способ справедливого распределения / С. И. Доценко // *Журнал обчислювальної та прикладної математики*. - 2014. - № 3. - С. 111-122. - Режим доступа: http://nbuv.gov.ua/UJRN/jopm_2014_3_16

4. Isamuhamedov B.B, (2016). TDIU mehnat bozorida malakali iqtisodchi kadrlarga bo'lgan talab va uning taklifini marketing tadqiqoti. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 y. Internet manzil:http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/34_B_Isamuhamedov_.pdf

5. Крылов А.О., (2013). Изучение рынка труда с позиции маркетинга персонала. Вестник Университета.2013 №19, стр.237-241 Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/izuchenie-rynka-truda-s-pozitsii-marketinga-personala>

6. Мальцева А.В Вопросы структуризации экономики. №3, 2012 Материалы IV Международной НПК по СТО в Махачкале стр.180-182. Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/segmentatsiya-rynka-truda-potentsial-sovremennyh-metodov-analiza-dannyh>

7. Xolmo'minov Sh.R., (2016). Qishloq mehnat bozoringin shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish (monografiya) –T.: "Fan va texnologiyalar", 2016. -232 b.

8. Xolmo'minov Sh.R., Arabov N.U., (2016). Mehnat bozori infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. –T.: " Fan va texnologiyalar", 2016. - 332 b.

9. Нестандартные формы занятости. Анализ проблем и перспективы решения в разных странах. Обзорная версия. Международное Бюро Труда – Женева: МБТ, 2017. Режим доступа: https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/dgreports/dcomm/wcms_554952



QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI

Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Ta'lim menejmenti kafedrasida dotsenti, i.f.f.d (PhD)

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p>Qabul qilindi: 24-sentabr 2023-yil Tasdiqlandi: 26-sentabr 2023-yil Jurnal soni: 8 Maqola raqami: 8 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.799</p> <p>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords</p> <p>mexanizm, qurilish, iqtisodiyot, tashkiliy jihatlar, jahon tajribasi.</p>	<p>Maqolada qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi haqida so'z boradi. Olib borilgan tadqiqotlarning asosini iqtisodiyotni yanada rivojlantirish sharoitida qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.</p>


Kirish. Jahon tajribasiga ko'ra, mamlakatdagi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, turli sanoat obyektlari hamda aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirishda qurilish materiallarini ishlab chiqarish sanoati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon bo'yicha qurilish materiallarini ishlab chiqarish va iste'mol qilishda ishlab chiqaruvchi firmalar tomonidan dunyoning turli mamlakatlarida o'z ishtiroklarini kengaytirib borish tendensiyalari ro'y bermoqda. Ayniqsa, bu borada sifatli sement ishlab chiqarishning ahamiyati tobora oshib borib, uni ishlab chiqarishning 90 foizi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelsa, G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaning hissasi qariyb 10 foizni tashkil etmoqda. Global construction 2030 agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga qadar dunyo bo'yicha qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmi 85 foizga oshib, 15,5 trln. AQSh dollari tashkil etadi. Bunda jahon bo'yicha ushbu sektor o'sishining 57 foizi asosan uch mamlakat – Xitoy, AQSh va Hindistonga to'g'ri kelishi taxmin qilinmoqda[1]. O'zbekistonda jadal iqtisodiy islohotlar sharoitida korporativ shakldagi tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatini rivojlantirish ishlab chiqarishni samarali tashkil etishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, keyingi yillarda qurilish materiallari sanoatida korporativ munosabatlarning keng rivojlanib borishi natijasida uning yalpi sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi ko'payib bormoqda. Biroq tarmoq boshqaruvida zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning yetarli darajada tashkil etilmaganligi bugungi

kunda mavjud iqtisodiy salohiyatdan yetarli darajada foydalanish imkoniyatini bermayapti. Shunga ko'ra, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida qurilish sohasini innovatsion rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, jumladan, "qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchilarning manfaatini inobatga olish"[2] bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, o'z navbatida, tarmoqda korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini joriy etish samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida bu borada korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirishning alohida yo'nalishlari I.I.Mazur, D.M.Mixaylov, Gerchikova I.M., K.Uolsh va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonda korporativ boshqaruvning shakllanishi, rivojlanishi xususiyatlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligi oshirishning umumiy jihatlari bo'yicha B.B.Berkinov, B.Yu.Xodiyev, Sh.G'.Yuldashev, D.X.Suyunov, Sh.N.Zaynutdinov, D.N.Raximova, M.B.Xamidullin, J.A.Fattaxova, R.I.Yaushev kabi olimlar tadqiqot olib boranganlar.

Tadqiqotlar metodologiyasi.



1-rasm. Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish sxemasi


Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalasi davlat ulushiga ega kompaniyalar uchun bir muncha ahamiyatli hisoblanadi. Korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish uchun, avvalo, unga tizimli yondashish va bundan tashqari davlatning aksiyador va tartibga soluvchi sifatidagi maqsadlarini aniq chegaralash; davlatning aksiyador sifatidagi

maqsadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni barcha manfaatdor shaxslarga yetkazish; boshqa aksiyadorlar bilan o'zaro munosabatlar strategiyasini ishlab chiqish; davlat ulushi mavjud kompaniyalar faoliyatiga insayderlik axborotlaridan foydalanishni tartibga soluvchi ichki hujjatlarini, korporativ boshqaruv kodeksini faol joriy etish; davlat ishtirokidagi kompaniyalarning korporativ ijtimoiy javobgarligi


darajasini oshirish; direktorlar kengashida maxsus qo'mitalarni shakllantirish; direktorlar kengashi faoliyatini baholash; davlat kompaniyalarining axborot ochiqchiligi darajasini listing targ'ibotidan o'tuvchi kompaniyalar darajasigacha yetkazish kabi masalalarga asosiy e'tiborni qaratish zarur (1-rasm).

Tadqiqotda ta'kidlanishicha, davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishda motivatsiya tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonada xodimlari kompaniyaning bosh strategik resursi hisoblanganligi sababli mehnat motivatsiyasi xodimni rag'batlantirishning monetar va nonomionar usullarini ishlab chiqish va samarali joriy qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Direktorlar Kengashi a'zolarining ishlari motivatsiyasi kompaniya faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari bo'lgan sof foyda yoki kapitallashuvning o'sishi kabi ko'rsatkichlar bilan korrelatsiyalangan bo'lishi lozim, bu, o'z navbatida, jamiyat boshqaruv apparati xatti-harakatidan sezilarli samara olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, "O'zqurilishmateriallari" AJda korporativ boshqaruvni joriy qilishning mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga ta'siri baholangan. AK bilan mahsulot tannarxi orasida teskari bog'liqlik mavjud, ya'ni AKni 1 foizga oshishi tannarxni 0.3 foizga kamayishini ta'minlaydi.



2-rasm. Aksiyadorlik kapitali va sotishdan tushgan tushum orasidagi regression tenglama.



3-rasm. Aksiyadorlik kapitali va mahsulot tannarxi orasidagi regression tenglama

Tahlillarimiz AK bilan xodimlar ish haqi orasida yuqori musbat korrelyatsion bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Xodimlar ish haqining oshishi, o'z navbatida, korxonaning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari ijobiy tomonga o'zgarishini ta'minlaydi.

"O'zqurilishmateriallari" AJning boshqaruv, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatishda band xodimlar ish haqi hamda uning yalpi foydasi, mahsulot tannarxi, sotuvdan tushgan yalpi tushumining o'zgarishi orasidagi regression tenglamalarni aniqlab, elastiklik koeffitsiyentini keltirib o'tamiz. Hisob-kitoblar uchun 2005–2016-yillar ma'lumotlari olingan bo'lib, bazis yil sifatida 2005-yil qabul qilingan holda real ko'rsatkichlar aniqlangan.

Tahlil natijalariga to'xtalsak, boshqaruvda band bo'lgan xodimlar ish haqi bilan yalpi foyda orasidagi elastiklik koeffitsiyenti 0.55 ga teng. Shuningdek, boshqaruv xodimlari ish haqi bilan mahsulot tannarxi orasidagi elastiklik koeffitsiyenti -0.18 ga hamda boshqaruv xodimlar ish haqi bilan mahsulot sotishdan tushgan yalpi tushum orasidagi elastiklik koeffitsiyenti 0.46 ga teng ekanligi aniqlandi.

1-jadval.

"O'zqurilishmateriallari" AJda xodimlar ish haqi va asosiy ko'rsatkichlari orasidagi regression tahlil natijalari[14]

No	REGRESSION TENGLAMA	T-SATISTIKA	R ²
1.	$Y_{YF} = 10.37 * X_{BHiH}^{0.55}$	$b_0=3.23 \ b_1=4.98$	$R^2=0.71$
2.	$Y_{MT} = 117.52 * X_{BHiH}^{-0.18}$	$b_0=18.28 \ b_1=-4.40$	$R^2=0.66$
3.	$Y_{YT} = 39.75 * X_{BHiH}^{0.46}$	$b_0=9.54 \ b_1=7.73$	$R^2=0.86$
4.	$Y_{YF} = 10.72 * X_{IHiH}^{0.60}$	$b_0=3.29 \ b_1=4.99$	$R^2=0.71$
5.	$Y_{MT} = 115.44 * X_{IHiH}^{-0.19}$	$b_0=18.10 \ b_1=-4.30$	$R^2=0.65$
6.	$Y_{YT} = 41.20 * X_{IHiH}^{0.49}$	$b_0=9.46 \ b_1=7.49$	$R^2=0.85$
7.	$Y_{YF} = 23.26 * X_{XHiH}^{0.49}$	$b_0=4.10 \ b_1=3.65$	$R^2=0.57$
8.	$Y_{MT} = 88.13 * X_{XHiH}^{-0.15}$	$b_0=16.22 \ b_1=-3.11$	$R^2=0.49$
9.	$Y_{YT} = 76.20 * X_{XHiH}^{0.41}$	$b_0=8.90 \ b_1=4.79$	$R^2=0.70$

bu yerda: Y_{YF} – AJning yalpi foydasi (mlrd. so'mda); Y_{MT} – ishlab chiqarilgan bir birlik mahsulot tannarxi (so'mda); Y_{YT} – mahsulot sotishdan tushgan yalpi tushum (mlrd. so'mda); X_{BHiH} – korxonada boshqaruvda band bo'lgan xodimlar ish haqi (ming so'mda); X_{IHiH} – AJda ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar ish haqi

(ming so'mda); X_{XHiH} – AJda xizmat ko'rsatishda band bo'lgan xodimlar ish haqi (ming so'mda);

Shuningdek, ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilar ish haqining bir foizga oshirilishi, korxonada yalpi foydasini 0.60 foizga, mahsulot sotishdan tushgan tushum miqdorini 0.49 foizga oshirish

hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini 0.19 foizga kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga ta'sir ko'rsatayotgan asosiy yo'nalishlardan biri raqobatbardoshlikdir. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan har bir sanoat mahsulot turi bozorda o'z o'rnini topishi uchun, avvalo, raqobatga chidamli bo'lishi zarur. Chunki raqobat va korxonalarining eksport salohiyatini oshirish jarayoni o'zaro chambarchas bog'liqdir. Bu holat to'g'ridan-to'g'ri qurilish materiallariga ham taalluqlidir. Bozorning bu jihatiga katta e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da ham, bu sohada bir qator muammolar mavjudligi tadqiqot davomida aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://www.globalconstruction2030.com>
2. Мазур И.И. и др. Корпоративный менеджмент. - М.: Омега-Л., 2011. 781с.;
3. Михайлов Д.М. Эффективное корпоративное управление (на современном этапе развития экономики РФ): учебно-практическое пособие/ Д.М.Михайлов.-М.: КНОРУС, 2010 с.27-28.;
4. Герчикова И.Н. Менеджмент. - М.: ЮНИТИ, 2007, 480 с.;
5. Крук М.Д. Современные формы и механизм корпоративного управления: методология и практика. - М.; 2000-с.357;
6. Уолш К. Ключевые показатели менеджмента. - М.: Дело, 2001-23 с.
7. Беркинов Б.Б. Корпоративные структуры: основы создания и управления. - Т.: ИНБ им. Алишера Навои 2005, - с.147;

Bu muammolarni samarali hal qilish uchun raqobatbardoshlik tamoyillari, maqsad va vazifalari, turlari, bozor munosabatlari nazariyasini "O'zqurilishmateriallari" AJ menejerlari puxta o'rganishlari lozim.

Amalga oshirilgan ekonometrik tahlil natijalari ko'ra, aksionerlik kapitali (AK)ni 1 foizga oshishi sotishdan tushadigan tushumning 0.78 foizga oshishini ta'minlaydi, AKning o'sishi sotishdan olingan tushumni oshirishdagi asosiy omillardan biri hisoblanib AK bilan mahsulot tannarxi orasida teskari bog'liqlik mavjud, ya'ni AKning 1 foizga oshishi tannarxning 0.3 foizga kamayishini ta'minlaydi.

8. Ходиев Б.Ю. Корпоратив бошқариш. Т.: Иктисодиёт, 2010, 257 б.
9. Юлдашев Ш.Ф. Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув. Т.: Академия, 2005 139 б.; Карлибаева Р.Х. ва б. Корпоратив молия. – Т.: ТДИУ, 2010. – 260 б.;
10. Зайнутдинов Ш.Н., Рахимова Д.Н. Корпоратив бошқарув. - Т.: Академия, 2010, 69 бет.;
11. Нурибегов Р.И., Турикова Л.М.Корпоратив бошқарувда стратегик менежмент самарадорлигини ошириш йўллари// «Fan va texnologiyalar» 2010 у (Монография).
12. Фаттахова Ж.А., Яушев Р.И., Толипов К.Ф., Хамидуллин М.Б. Ўзбекистонда корпоратив бошқарувни жорий этиш муаммолари. – Т.: ИТМ, 2006. – 79 б.;
13. Фуломов С.С. ва б. Корпоратив ҳуқуқ. – Т.: Фан, 2004. – 703 б.;
14. Muallif ishlanmasi.



MARKETING AS A DRIVER OF SUCCESSFUL MARKET INTRODUCTION OF INNOVATIVE PRODUCTS IN A TRANSFORMING NATIONAL ECONOMY

Kurpayanidi Konstantin Ivanovich

PhD in economics, Professor,

International Institute of Food Technology and Engineering,

Academician of the International Academy of Theoretical and Applied Sciences (USA), Ferghana, Republic of Uzbekistan

E-mail: antinari@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-sentabr 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-sentabr 2023-yil

Jurnal soni: 8

Maqola raqami: 9

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.800>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

Marketing, innovation marketing, marketing efficiency, success factors of a new product, the market of innovative products, innovation marketing, transformation of the economy.

ANNOTATION

The innovative renewal of the world economy and the transition to a new knowledge-based economy are the main drivers of social development in modern society. This paradigm shift towards a postindustrial society has elevated enterprises producing innovative products to becoming key players in this new economy. However, there is a high risk associated with launching innovative products on the market, with around a third of new products failing and leading to losses rather than profits. Therefore, marketing support for the creation of new products is vital for companies in this space. This article explores the significance of marketing research in introducing innovative products to the market, the factors influencing the success of new products, the market for innovative products, and features of marketing innovation.

Introduction. The hallmark of modern-day social development is the rapid and continuous innovation of the world economy. This innovation is the driving force behind the transition to a new knowledge-based economy, which is characterized by accelerated economic activity. The paradigm shift that this has brought about is so radical that companies creating innovative products have now become the primary movers and shakers in the economy¹. However, the high degree of risk associated with launching innovative products on the market highlights the critical importance of marketing support in the creation and introduction of these products². This article explores the significance of marketing research in the introduction of innovative products to the market, the factors influencing the success of new products, the market for innovative products, and the features of marketing innovation.

As Peter Drucker famously stated, "Business has only two functions - marketing and innovation." Drucker believed that marketing and innovation were the foundational pillars for a company's success. Hence, we must examine the purpose and role of marketing from an innovation perspective³.

Marketing is more than just increasing sales; it is customer and market-oriented, with a focus on aligning all products, services, and processes with the needs of customers and users. The tasks of marketing are extensive and can include market research, strategic planning, and the famous 4P marketing mix⁴. Market research involves identifying customer needs, current and future market needs, and exploring possible market potentials. Marketing also plays a strategic role, developing marketing plans based on corporate strategy and identifying strategically important markets based on market information^{5,6}.

Interestingly, marketing and innovation management share many similarities, such as trend analysis, researching customer needs, and defining product policies with product development and design⁷.

The modernization of the economy is essential for the innovative development of the country. As Uzbekistan continues to stabilize, the diffusion of innovation and the introduction and rapid spread of new ideas, developments, and technologies will be difficult to achieve without significant modernization of the economy⁸. This requires integrating education, science, and industry and implementing technical

solutions that facilitate the creation of new industries, companies, and increased demand for innovative products.

Achieving innovative development in the short term is one of the most urgent tasks facing the national economy. Comprehensive reforms are needed, and the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan is a government agency responsible for implementing a unified state policy in the field of innovation and scientific and technological development. The implementation of measures in accordance with the strategic plan is crucial in innovative development, and the strategy of innovative development of the Republic of Uzbekistan for 2022-2026, the roadmap for its implementation and confirmation of the indicators of the Republic of Uzbekistan for innovative development until 2030 - all this is crucial to achieve this goal. The main goal of this strategy is to develop human capital, increase the intellectual and technological potential of the country and become one of the 50 largest innovative countries in the world by 2030⁹.

Literature review. It is essential to clarify the concept of innovation in the era of economic globalization. Innovative ways of organizing systems at all levels are crucial in the formation of a new model of economic growth. The ability to develop and implement innovations is the main tool of competition, not the possession of capital resources and material values. Therefore, there is a growing interest in the problem of innovative development from both government agencies and businesses.

Marketing plays a critical role in the successful introduction of innovative products to the market, especially in the context of a transforming economy. This statement is supported by several authors in the literature.

According to Katsikeas et al. (2016), marketing activities such as market research, branding, advertising, and sales promotion are essential for the successful introduction of innovative products in a competitive market. The authors emphasize that the effectiveness of marketing is

¹ Plucker, J. A. (Ed.). (2022). *Creativity and innovation: Theory, research, and practice*. Routledge.

² Sultana, S., Akter, S., & Kyriazis, E. (2022). How data-driven innovation capability is shaping the future of market agility and competitive performance? *Technological Forecasting and Social Change*, 174, 121260.

³ Sheridan, R. (2022). The Role of Culture, Storytelling, & Joy in Saving Menlo Innovations. *American Journal of Health Promotion*, 36(6), 1066-1068.

⁴ Bogue, J., & Repar, L. (2023). Market-oriented methodologies that integrate the consumer into the functional foods new product development process: Part 1 contemporary approaches. In *Case Studies on the Business of Nutraceuticals, Functional and Super Foods* (pp. 31-56). Woodhead Publishing.

⁵ Kitchen, P. J., Tourky, M. E., Kitchen, P. J., & Tourky, M. E. (2022). Implementing the IGMC Strategy. *Integrated Marketing Communications: A Global Brand-Driven Approach*, 113-146.

⁶ Hoekstra, J. C., & Leeflang, P. S. (2022). Thriving through turbulence: Lessons from marketing academia and marketing practice. *European Management Journal*.

19. F. Buffa, Yosh sayyohlar va barqarorlik. Maqsad strategiyalari uchun profillar, munosabat va ta'sirlar, 2015.
20. E. Burrai, D.M. Buda, D. Stenford, Mas'uliyatli turizm mafkurasini qayta ko'rib chiqish, 2019.
21. Barqaror turizm jurnali, 27 (7) (2019), 992-1007-betlar.
22. S. Koul, Axborot va imkoniyatlarni oshirish: barqaror turizmga erishish kalitlari, 2006.
23. Barqaror turizm jurnali, 14 (6) (2006), 629-644-betlar.
24. Biznes uchun ta'lim jurnali, 79 (3) (2004), 149-151-betlar.
25. Ta'limda menejment xalqaro jurnali, 15 (2) (2017), 138-152-betlar.



TURISTIK MAHSULOTLAR VA XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSİYALASHNI BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sultonova Yulduzxon Kamoldinovna

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

E-mail: sultonovayulduzxon66@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATION

Qabul qilindi: 24-sentabr 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-sentabr 2023-yil

Jurnal soni: 8

Maqola raqami: 14

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.806>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

diversifikatsiya, COVID-19, turoperator, sayyohlik kompaniyasi, turistik bozor, inqirozdan chiqish, mexanizm, tashqi noaniqlik.

Turizm faoliyatidagi jiddiy xavflarni minimallashtirish yoki oldini olish uchun diversifikatsiya qilish zarur. Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi tashqi muhitdagi noaniqlik sharoitida, ichki turistik turoperatorlar faoliyatini diversifikatsiya qilish strategiyasini aniqlashdan iborat. Ishning uslubiy asosini yangilash, tizim tahlili, tasniflash, statistik tahlildan foydalangan holda ekologik noaniqlik davrida diversifikatsiya va uning turoperatorlarga ta'sirini baholash tashkil etildi. Maqolada "diversifikaesiya" tushunchasi ko'rib chiqiladi, uning asosiy turlari va faoliyat sohalari bo'yicha turizm operatorlarining tasnifi ko'rsatilgan. Pandemiya davridan keyin O'zbekiston turizm sanoatini rivojlanishi va asosan 2022-yilgi kirish turizmi taplili keltirilgan. Shuningdek 6 2020-yilgi statistik ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekiston fuqarolari hatto COVID-19 pandemiyasi davrida ham ichki turizmga qiziqish bildirishgan degan xulosaga kelindi. Turoperatorlar va sayyohlik firmalariga turizm xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni saqlab qolish va rivojlanish imkonini beruvchi diversifikatsiyaning asosiy usullari keltirilgan. Amaliy ahamiyati tashqi muhitdagi noaniqlik sharoitida diversifikatsiya strategiyasini aniqlashda, O'zbekiston va xorijiy turoperatorlarni diversifikatsiya qilish xususiyatlarini, jahon amaliyotida turizm mahsulotini diversifikatsiya qilish usullarini aniqlash yotadi.

Kirish: Jahonda turizm sohasi barcha mamlakatlarda xizmat sohasini iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili bo'lib, iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim masalalaridan biri sifatida belgilamoqda. Turizm sohasi rivojlanish uchun eng jozibador kichik va o'rta biznes sohalardan biridir, chunki u daromadlarni oshirishga yordam beradi. Biroq, 2019-yilgacha yaratilgan turizm faoliyatini rivojlantirishning barcha usullari Covid-19 virusi paydo bo'lishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotdi. Pandemiya davrida turizm sanoati korxonalarini faoliyatini zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish zarurati qanchalik muhim ekanligi, xususan, ichki turizmni hisobga olish ustuvor vazifalardan biri ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. Aynan diversifikatsiya sayyohlik kompaniyalariga ichki turizm iste'molchilari uchun mo'ljallangan noyob mahsulotni yaratish orqali raqobatbardoshligini saqlab qolish imkoniyatini beradi. Turoperatorlar faoliyatini diversifikatsiya qilish muammolarini o'rganish sezilarli miqdorda ekologik noaniqlik doirasiga O.V.Shpirnya, G.V.Yermakova, A.V. Myedyanik, M.V.Gusteyev, S.Nikitin, L.Dyemidova, A.A.Tompson, A.Dj.Striklyend kabi olimlar asarida alohida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotchilar asosiy xususiyatlarni ko'rsatuvchi diversifikatsiya ta'riflarini berishgan.

2020-yilda turizm sohasi rivojlanishining pasayishi mamlakatdagi va butun dunyodagi epidemiologik vaziyat bilan bevosita bog'liq, buni statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Birlashgan millatlar tashkilotining Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, sayyohlarning tashgiri 2020-yilda 2019-yilgi ko'rsatkichga nisbatan 74 foizga [kamaygan](#)¹. Bundan ko'rinib turibdiki pandemiya davrida eng ko'p zarar ko'rgan sohalardan biri turizm bo'lgan. Demak, biz tashqi noaniqlik davrida ham o'z faoliyatimizni barqaror ushlab turishimiz uchun diversifikatsiya mexanizmini tashkil qilishimiz zaruratini namoyon qildi. Ko'rib chiqilayotgan muammoning dolzarbligi, uning amaliy ahamiyati va ilmiy bilimlarning yetarli darajada emasligi ilmiy tadqiqot ishining mavzusini tanlashni belgilab berdi va uning maqsad va vazifalarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot ishining maqsadi: Maqsad strategiyani aniqlashdir, tashqi muhitdagi noaniqlik sharoitida, xususan, COVID-19 pandemiyasi munosabati bilan xalqaro turistik turoperatorlar faoliyatini diversifikatsiya qilish. Ushbu maqsadga erishish tizimli ravishda o'zaro bog'liq bo'lgan bir guruh nazariy, uslubiy va amaliy muammolarni hal qilishni talab qildi:

- turoperatorlar faoliyatini diversifikatsiya qilishning konseptual asoslarini ko'rib chiqish;

- diversifikatsiya turlarini aniqlash;
- turoperatorlar faoliyatini tahlil qilish;
- tashqi muhit noaniqlik davrida turizm xizmatlarini rivojlantirish tendensiyalarini tahlil qilish;
- hozirgi iqtisodiy vaziyatda talab va taklifning shakllanish qonuniyatlarini o'rganish.

Tadqiqot predmeti: Tadqiqotning manba bazasi, mavjud tadqiqotlardagi ziddiyatlar, muallifning pozitsiyasida.

Tadqiqot mavzusi: Turistik mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiyalashni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish

Adabiyotlar tahlili: Turoperatorlarning rivojlanishi va ularning bozordagi o'rni, raqobatbardoshlik qobiliyati darajasi bevosita, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga bog'liq. Turistik faoliyatni diversifikatsiya qilinsa, korxonalar talabning o'zgaruvchan tuzilmasiga tezda javob berishga, moddiy-texnikaviy va moliyaviy resurslarni saqlashga va undan samarali foydalanishga yordam beradigan obyektga aylanadi. Diversifikatsiya jarayoni turli xususiyatlarga ega bo'lgan yangi korxonalar faoliyati tuzilishiga qo'shilishni anglatadi. Turizm sohasidagi korxonalar uchun samarali diversifikatsiya qilish masalasi juda dolzarb bo'lib qolmoqda, chunki bunday o'zgartirish xarajatlarni kamaytirish, aylanma mablag'larni ishlab chiqarish va umuman olganda potentsialdan maksimal darajada foydalanish masalalarini hal qilishga imkon beradi. So'nggi paytlarda diversifikatsiya tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda COVID-19 pandemiyasi tufayli, uning tadqiqotlari chet ellik olimlar O.V. Shpyrnya, S.Berri, A.V.Medyanik, F.E.Lyashko, V.I.Prixodko, G.S. Tatyushkin, M.V.Spiryakin va boshqalar tomonidan ko'rib chiqilib ushbu mualliflar diversifikatsiyani korxonalar tomonidan bir vaqtning o'zida bir nechta bozorlarga xizmat ko'rsatish sifatida belgilaydilar.

Diversifikatsiya deganda qisqa muddatda boshqa turdagi tovarlar ishlab chiqarish uchun zarur resurslarga ega bo'lish, o'z navbatida, turli xil faoliyat jarayonlariga intilish tushuniladi. Umuman olganda, "diversifikatsiya" atamasining zamonaviy talqini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgacha ushbu terminologiyaga yagona yondashuv mavjud emas edi. A.V.Makarov, N.B.Rudyk, S.Nikitin va L.Demidova bog'liq bo'lmagan diversifikatsiya turidan foydalanadi². Masalan, E.G.Novitskiy "diversifikatsiya" atamasining ta'rifida "asosiy faoliyatga bog'liqlik" va "yangi" kabi iboralardan foydalanadi³. Bu diversifikatsiya turlaridan birining xususiyatlarini bildiradi.

A.V.Makarov bu atamani "raqobatbardoshlikni ta'minlash" va "faoliyatning mutlaqo yangi hududlari" iboralari orqali izohlaydi. M.V.Gutsev, Rudyk, F.E.Lyashko, V.I.Prixodko, G.S.Tyutyushkina

¹ www.unwto.org

² Makarov, A.V., Garifullin, A.P. Diversifikatsiya kak instrument razvitiya sovremennoy predpriyatiya // Izvestiya UrfGU. – 2010. – № 1(27). – С. 27–36.

³ Новичкий Е. Г. Проблемы стратегического управления диверсифицированными корпорациями. – Москва: Буквица, 2001. – 256 с

“diversifikatsiya” atamasini xavfni minimallashtirish va tarqatish maqsadidagi strategiya sifatida talqin qilish haqida soʻz yuritadi⁴.

Oʻzbekistonlik i.f.n. dotsent A.N.Norcheyev oʻzining «Oʻzbekistonda COVID-19 pandemiyasining turizmga taʼsirini yumshatish yoʻllari» nomli maqolasida pandemiyadan keyingi vaqtda turizmni tezda oyoqqa turgʻazib olish, aviachipta narxlarini pasaytirish, mehmonxonalar va restoranlarda xizmat sifatini oshirish, ananaviy turistik markazlarimiz boʻlgan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xivadagi mehmonxonalarni modernizatsiya qilish emas, balki turistik resurslarga boy boʻlgan Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax va Fargʻona vodiysida kichik shinam 3-4 yulduzli mehmonxonalarni qurishni ragʻbatlantirish kerakligi boʻyicha ilmiy mulohazalar keltirgan⁵. A.Ocharov, M.Malkina «Влияние экономической нестабильности на развитие европейского туристского рынка» nomli asarida COVID-19 ning turizm sektoriga taʼsiri va misli koʻrilmagan oqibatlarida Yevropada va butun dunyoda faollik pasayganligi va uni qayta tiklash istiqbollari atroflicha eʼtibor qaratilgan⁶.

Biroq, diversifikatsiyaning oʻzi maʼlum xavf va xarajatlar bilan bogʻliq. Shunday qilib, biz asosiy xususiyatlarni aniqlab olamiz. Ushbu konsepsiyaning asosini tashkil etuvchi:

1) diversifikatsiya – bir vaqtning oʻzida raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga sotishning yangi darajasiga chiqish imkonini beruvchi strategiya;

2) diversifikatsiya – ishlab chiqarishning yangi turlarini oʻzlashtirish, iqtisodiyotni qisqartirish maqsadida uni isteʼmolchilarning kengaygan toifasiga yoʻnaltirish;

3) diversifikatsiya – bir vaqtning oʻzida bir nechta bozorlarga xizmat koʻrsatish

boshqa turdagi tovarlarni ishlab chiqarish uchun qisqa muddatda zarur resurslarga ega boʻlgan kompaniya;

4) diversifikatsiya xavflarni minimallashtirish va tarqatishning bevosita usulidir.

Diversifikatsiya bir-biriga bogʻliq boʻlmagan, bir vaqtning oʻzida ishlab chiqarish, sotish va biznes kabi faoliyat turlari, mahsulot yoki xizmatlar turlari va imkoniyatlarini kengaytirish, mablagʻlarni vakolatli taqsimlash kabi koʻpchilikni rivojlantirishni oʻz ichiga oladi.

Turizmni diversifikatsiya qilish turli aktivlar oʻrtasida xavflarni kamaytirish, shuningdek, kompaniyani kengaytirish va aviakompaniyalarni yaratish, mehmonxona komplekslarini ochish sanoatning yangi turlarini yaxshilash va turizmning xilma-xilligini oshirish demakdir. Ularning bozordagi raqobatbardoshligi, ehtiyojlarini qondirishi, shuningdek, faoliyatining moliyaviy natijalari turistik kompaniyalarning toʻgʻri tanlangan diversifikatsiya strategiyasiga bogʻliqdir. Ekologik noaniqlik sharoitida: diversifikatsiyaning konsentrik, vertikal va gorizontol turlarini amaliyotda qoʻllasa boʻladi. Shunday qilib, gorizontol diversifikatsiya bevosita bogʻliq boʻlmagan muayyan faoliyat turlarini tashkil etish sayyohlik kompaniyasining joriy ixtisoslashuvi sifatida qaraladi. Misol tariqasida yangi turistik yoʻnalishlar yoki yoʻnalishlarning ochilishi, shuningdek, turizm faoliyatining yangi turlari rivojlanishini nazarda tutishimiz mumkin. Vertikal diversifikatsiya – sayyohlik faoliyatining mutlaqo yangi turlarini kashf etish, konsentrik diversifikatsiya – xizmatlar turlari doirasidagi tabaqalanish tufayli turizm kompaniyasining oʻsishi. Bu diversifikatsiya usuli isteʼmolchilarga qoʻshimcha xizmatlar taklif qilishni oʻz ichiga oladi.

Shunday qilib, "diversifikatsiya" tushunchasi koʻpchilikning rivojlanishini anglatadi, bir vaqtning oʻzida bogʻliq boʻlmagan faoliyat (ishlab chiqarish, sotish va biznes, mahsulot yoki xizmatlar turlari va imkoniyatlarini kengaytirish, risklarni kamaytirish maqsadida mablagʻlarni turli aktivlar oʻrtasida vakolatli taqsimlash). Ekologik noaniqlik sharoitida turoperatorlarni ishlab chiqarish faoliyatini diversifikatsiya qilish va tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ishning uslubiy asosini yangilash, tizimli tahlil, tasniflash, statistik tahlil usullaridan foydalangan holda tashqi muhitdagi noaniqlik davrida diversifikatsiya va uning turoperatorlarga taʼsirini baholash tashkil etildi.

Asosiy qism. Turoperatorning eng muhim vazifalaridan biri bu kompaniyaning turizm bozoridagi barqaror pozitsiyasi bilan birgalikda daromad olishdir. Bunga erishish uchun turoperatorlar raqobatbardosh boʻladigan turizm bozorini differentsiallashtirish asosida oʻzlarining isteʼmol segmentini rivojlantirishlari kerak. Hozirgi vaqtda turoperatorlarning quyidagi turlari ajratilgan.

1-jadval

Turoperatorlarning tasnifi

Koʻrinish	Tavsif
Faoliyat turi boʻyicha	
Ommaviy bozor turoperatorlari	Ommaviy bozor operatorlari oʻz faoliyati davomida charterdan foydalangan holda tez-tez tashrif buyuradigan sayyohlik joylariga parvozlar qilib turpaketlarni taklif qilishadi
Ixtisoslashgan turoperatorlar	Ixtisoslashgan turoperatorlar – muayyan ehtiyoj va aniq isteʼmolchilar uchun xizmatlar koʻrsatadigan tashkilotlar
Mahalliy turoperatorlar	Kompaniya bilan bogʻlangan isteʼmolchilarga mamlakat boʻylab sayohatlarni taqdim etuvchi agentlar
Chiqib ketuvchi turoperatorlar	Mamlakat tashqarisida turlarni taʼminlovchi operatorlar
Qabulxonagi turoperatorlar	Boshqa davlatda joylashgan turoperatorlar ularning turistlari oʻsha joyda
Tashabbuskor turoperatorlar	Turoperatorlar mijozlarni boshqa davlatga joʻnatish yoki turistning iltimosiga koʻra, qabul operatorlari bilan yoki darhol vositachilarsiz turizm korxonalarini bilan kelishilgan holda xizmat koʻrsatish
Turoperatorlarni qabul qilish	Qabul qiluvchi mamlakatda joylashgan va mijozlar uchun turlar va dam olish dasturlarini ishlab chiquvchi turoperatorlar, turoperatorlar toʻgʻridan-toʻgʻri xizmat koʻrsatuvchi provayderlar bilan tuzilgan shartnomalardan foydalanadilar

1-jadvalgi maʼlumotlarga asosan biz taqdim etilayotgan xizmatlarning xilma-xilligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Xizmatlar, bu, albatta, raqobatning yuqori darajasiga taʼsir qiladi. Shuning uchun turoperatorlar raqobatbardoshlikni kuchaytirish uchun oʻz faoliyatini diversifikatsiya qilishlari kerak. Oʻzbekistonga tashrif buyurgan turistlarning koʻpchiligi geolokatsiya yaxshi yoʻlga qoʻyilmaganini taʼkidlashadi. Turistlar mamlakatga mustaqil tashrif buyuruvchi sayyoh oʻzi istagan joyga borishda va istagan narsasini topishda qiyinchiliklarga duch kelishini aytishgan. Ushbu tendensiya bevosita COVID-2019 koronavirus pandemiyasida koʻrilgan talofat

bilan bogʻliq. Shu bilan birga, pandemiya davrida Oʻzbekistonda mehmonxona xonalarining maksimal bandligi 100% quvvatdan taxminan 2-10% ni tashkil qildi. Bu koʻrsatkich shaharlar uchun juda past hisoblanadi. Bu koʻrsatkich asosan uzoq muddatli mehmonlar nima boʻlishidan qatʼi nazar, mehmonxonalarda qoladigan mijozlar edi. Qisqa va favqulotda muhim sayohatlar uchun tashriflarga ham kvota bor edi. Bozorning yuqori segmentida poytaxtda yuk 5–7% dan oshmadi, bunga sabab turizm sanoatida turistik mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiyalashni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirilmaganligi deyishimiz mumkin⁷.

⁴ Ляшко Ф.Е., Приходько В.И., Тютюшкина Г.С. Стратегический менеджмент в авиации: учебное пособие. – Ульяновск, 2003. – 240 с.

⁵ Norcheyev A.N. “Oʻzbekistonda COVID-19 pandemiyasining turizmga taʼsirini yumshatish yoʻllari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020-yil 346-351 B


⁶ Norcheyev A.N. “Oʻzbekistonda COVID-19 pandemiyasining turizmga taʼsirini yumshatish yoʻllari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, senyabr-oktyabr, 2020-yil 346-351 B

⁷ <https://www.unwto.org/>

O'zbekistonning pandemiyadan keying holati.

Davlatlar	2022-yil	2021-yil
Qo'shni davlatlardan	4364,8 ming nafar	1542,3 ming nafar
Qolgan MDH davlatlardan	606,4 ming nafar	208,3 ming nafar
Uzoq xorijiy davlatlardan	261,6 ming nafar	132,1 ming nafar
Turkiya	75,5 ming nafar	44,15 ming nafar
Janubiy Koreya	19,9 ming nafar	5,74 ming nafar
Germaniya	17,7 ming nafar	6,89 ming nafar
AQSH	13,1 ming nafar	5,4 ming nafar
Fransiya	11,0 ming nafar	3,36 ming nafar
Buyuk Britaniya	10,5 ming nafar	3,98 ming nafar

2-jadvalda 2021-yilda va 2022-yilda O'zbekistonga tashrif buyurganlar soni keltirib o'tilgan. Ko'rib turibmizki 2021-yilga nisbatan 2022-yilda qo'shni davlatlardan tashrif buyurganlar 283%, qolgan MDH davlatlaridan kelganlar 291% va uzoq xorijiy davlatlardan kelganlar 198%ga oshgan⁸. O'zbekiston pandemiyadan keyin turizm sanoatiga sarmoya kiritishni davom ettirayotgan sanoqli davlatlardan biri.



1-rasm. 2022-yilda kirish dinamikasini davlatlardagi ulishi



2-rasm. O'zbekistonga pandemiyadan keyin xorijiy sayyohlarni tashrifi va 2023-yil yakuni uchun ehtimoliy prognoz.

Biz 2023-yilgi kirish turizmini ehtimoliy prognozda ko'rsatilgan natijaga erishishimiz uchun, har qanday tashqi noaniqlik vaqtida iqtisodiy salohiyatimizni ushlab tura olishimiz uchun eng avvalo turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va ushbu jarayonni takomillashtirishimiz zarur.

Global inqiroz sharoitida turoperatorlar quyidagi samaradorlikni oshirish choralarini amalga oshirdilar:

1) chegaralar ochilgandan keyin mijozlarni ekskursiyalardan bosh tortmaslikka, balki ulardan foydalanishga taklif qilish;

2) xarajatlarni qisqartirish – masofaviy ishlashga o'tish;

3) yangi mijozlarni jalb qilish uchun ijtimoiy tarmoqlarda faollikni oshirish;

4) muqobil tur variantlari bilan chiqdi⁹:

Biroq, ichki turizmni tashkil etish murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, u bir qator qiyinchiliklar, xususan, logistika muammolari bilan birga keladi.

Turoperatorlarni ma'lumotlarni taqdim etishga majbur qiladigan, qo'shimcha transferlar bilan yo'nalishlar, havo qatnovining yuqori narxi, borish qiyin bo'lgan joylarda attraksionlarning joylashishi. Barcha komponentlarni hisobga olgan holda (transport, turar joy, hamrohlik qiluvchi shaxslarning xizmatlari) turning narxi yuqoriligicha qolmoqda, bu esa ommaviy turistik yo'nalishlarni tashkil etish uchun mos emas.

Shunday qilib, "diversifikatsiya" tushunchasi ko'pchilikning rivojlanishini anglatadi, ishlab chiqarish, sotish va biznes, mahsulot yoki xizmatlar turlari va variantlarini kengaytirish kabi bog'liq bo'lmagan faoliyat va risklarni kamaytirish uchun turli aktivlar o'rtasida mablag'larni vakolatli taqsimlash. Turizm mahsulotini diversifikatsiya qilish hududlarning resurs salohiyatini yangilash maqsadida O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishi sifatida e'lon qilingan. Turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish strategiyasi mavjud yo'nalishlarga sayohatlar, shuningdek, turizmning yangi turlarini rivojlantirish va sayohat mavsumiyligini yumshatish kabi xilma-xillik va takomillashtirishni o'z ichiga oladi¹⁰.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot tashqi noaniqlik sharoitida turoperatorlar faoliyatida diversifikatsiyaning rolini aniqladi. Diversifikatsiya firmalarga qiyin iqtisodiy vaziyatlarda yangi ichki turizm iste'molchilari uchun mo'ljallangan mahsulot yaratish orqali raqobatbardoshlikni saqlab qolish imkonini beradi. Diversifikatsiya, korxonalar nafaqat hozirgi vaqtda yoki yaqin kelajakda o'zining operatsion samaradorligini, bozordagi o'rnini uzoq muddat samarali tarzda ushlab turish imkonini beradi. Tashqi noaniqlikning sharoitlari, atrof-muhit tashkilot faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, turizm xizmatlari bozorida uning samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli, turizm xizmatlari bozorida o'z faoliyatini samarali davom ettirish uchun ichki turizm bozorida turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish zarur. Tashqi muhit noaniqlik sharoitida, turizm sanoati korxonalarini samarasiz bo'lib qoladi va shuning uchun o'z faoliyat turini o'zgartirishi, ichki turizm bozorida xizmatlarni sotish diqqat markazida bo'lishi kerak. Ishning ilmiy yangiligi – pandemiya bilan bog'liq tashqi muhitdagi noaniqlik davrida "diversifikatsiya" tushunchalarini o'rganish. Ushbu maqola turizm operatorlarini faoliyat sohalari bo'yicha tasniflaydi. Turoperatorlar va sayyohlik kompaniyalariga turizm xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni saqlab qolish va rivojlanish imkonini beruvchi diversifikatsiyaning asosiy usullari keltirilgan. Tashqi muhitda noaniqlik davrida diversifikatsiya strategiyasini aniqlash, ayniqsa, O'zbekiston turoperatorlarni diversifikatsiya qilish usullari, pandemiya davrida jahon amaliyotida turizm mahsulotini diversifikatsiya qilish usullari amaliy kampanent sifatida tahlil qilindi.

O'zbekistonda turistik mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiyalashni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi usullar amalga oshirilishi mumkin:

⁸ <https://www.unwto.org/>

⁹ <https://lex.uz/>

¹⁰ Muallifdan

1.Sanoat sohasida diversifikatsiya: Turistik mahsulotlarni sanoat sohasiga keltirib, ularning kengayishi va yangi turistik mahsulotlar yaratish uchun sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash kerak.

2.Xizmat sohasida diversifikatsiya: Turistik xizmatlarni o'zgartirish va yangilash orqali turistlarga ko'proq imkoniyatlarni taqdim etish kerak.

3.Turistik obyektlarning diversifikatsiyasi: O'zbekistonda mavjud turistik obyektlarni kengaytirish va yangi obyektlar yaratish uchun investitsiyalar bilan ishlash zarur. Bu investitsiyalar bo'yicha bizneslarga va xususiy investitsiyalarga imtiyozlar berish, shuningdek, mahalliy va xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik qilish muhimdir.

4.Xorijiy investitsiyalar bilan ishlash: Turistik sohadagi xorijiy investitsiyalar orqali yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratish imkonini beradi. Xorijiy kompaniyalar bilan kelajakda shartnoma imzolash, ularga chegirmalar berilishi va turistik sohaga investitsiya qilganlarga imtiyozlari taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ермаков Г.В. Проблемы и перспективы диверсификации туристских продуктов регионов // Молодая наука. – 2019. – №1. – С. 16.

2. Медяник А.В. Специфика процесса управления рисками на предприятиях туристической деятельности // Туристическая деятельность России. – Москва: Изд-во РДЦ, 2017. – 34 с.

3. Гуцев М. В. Диверсификация на высокотехнологичных предприятиях. – Текст: электронный // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2011. – №10 // Научная электронная библиотека «КиберЛенинка»:[сайт]. – URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/diversifikatsiya-na-vysokotekhnologichnyh-predpriyatiyah> (дата обращения: 20.02.2021).

4. Никитин С, Демидова Л., Степанова М. Монополия, олигополия и конкуренция // Мировая экономика и международные отношения. – 1989. – № 3. – С. 18–26.

5. Томпсон А.А., Стрикленд А.Дж. Стратегический менеджмент. Искусство разработки и реализации стратегий: учеб. для вузов / пер. с англ.; под ред. Л. Г. Зайцева, М.И. Соколовой. – Москва: Банки и биржи; ЮНИТИ, 1998. – 86 с.

6. Berry C. H. Corporate Growth and Diversification // Journal of Law and Economics. – 1971. – Vol. 14, № 2. – P. 371–383.

7. Ляшко Ф.Е., Приходько В. И., Тютюшкина Г.С. Стратегический менеджмент в авиастроении: учебное пособие. – Ульяновск, 2003. – 240 с.

8. Макаров А. В., Гарифуллин А. Р. Диверсификация как инструмент развития современного предприятия // Известия УрГЭУ. – 2010. – № 1(27). – С. 27–36.

9. Рудык Н. Б. Конгломеративные слияния и поглощения: книга о пользе и вреде непрофильных активов: учебно-практическое пособие. – Москва: Дело, 2005. – 188 с.

10. Никитин С., Демидова Л., Степанова М. Монополия, олигополия и конкуренция. – 2-е изд., перераб. и доп. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2014. – 108 с.

11. Новицкий Е. Г. Проблемы стратегического управления диверсифицированными корпорациями. – Москва: Буквица, 2001. – 256 с.

12. Norcheye A.N. "O'zbekistonda COVID-19 pandemiyasining turizmga ta'sirini yumshatish yo'llari" "Iqtisodiyot va innovatsion

5.Turistik sohada innovatsion texnologiyalardan foydalanish: Yagona innovatsion texnologiya turlari, masalan, internet marketingi, onlayn rezervatsiya sistemalari va elektronik to'lovlar turistik sohani takomillashtirishi uchun muhimdir. Bu usullar orqali turistlarga tezroq va qulay xizmat ko'rsatilishi mumkin.

6.Sertifikatlash va standartlashtirish: Turistik mahsulotlarni sertifikatlash va standartlashtirish jarayonini amalga oshirib, turistlar uchun sifatli xizmatlar taqdim etish kerak. Bu O'zbekistonning turistik sohasini rivojlantirish, ularga etibor jalb qilish va turistlar sonini oshirishga yordam beradi.

7.Xalqaro marketing va reklama: O'zbekistonning turistik mahsulotlarini va xizmatlarini dunyoga taqdim etish uchun xalqaro marketing va reklama kampaniyalari tashkillash kerak. Turistik obyektlar, sayohat agentliklari va media tashkilotlari bilan hamkorlik qilish muhimdir. Turistlarni O'zbekistonga olib kelishiga qo'llanma tayyorlash, veb-saytlarni rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlarda reklama qilish kabi usullardan foydalanish kerak.

texnologiyalar" ilmiy elektron jumali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil 346-351 B.

13. А. Очаров, М. Малкина "Влияние экономической нестабильности на развитие европейского туристского рынка" Современная Европа, 2021, № 2, с. 75–88

14. Sultonova, Yulduzxon. "Turistik xizmatlar va mahsulotlarni diversifikatsiyalashni boshqarishning xorij tajribalari va undan mamlakatimiz amaliyotida foydalanish uslubiyotlari." Iqtisodiyot va ta'lim 24.4 (2023): 318-326.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora tadbirlar to'g'risida»gi 2020-yil 19-martdagi PF-5969-son Farmon

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 49-son, 558-modda. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4861 of December 2, 2016 "On measures to ensure the accelerated development of tourism in the Republic of Uzbekistan." Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2016, No. 49, Article 558)

17. Sultonova Yulduzxon Kamoldinovna "Turistik xizmatlar va mahsulotlarni diversifikatsiyalashni boshqarishning xorij tajribalari va undan mamlakatimiz amaliyotida foydalanish uslubiyotlari" Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 4-son.

18. Sultonova Yulduzxon Kamoldinovna "Turistik mahsulotlar va xizmatlar mohiyatiga yondashuvlar va ularni diversifikatsiyalash jarayonining nazariy-uslubiy jihatlari"

19. Mirzaev A.T. Assessment of cluster formation in management of recreational activity. International Scientific Journal "Theoretical & Applied Science", Philadelphia, USA. 04, (84), 2020. – 605-610-pp.p -ISSN: 2308-4944. <http://T-Science.org>

20. Mirzaev A.T. Evaluation of innovation capacity resource components in effective management of recreational clusters on the basis of econometric analysis. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). India. Volume: 5 Issue: 7 July 2020. –P.131-137. DOI: <https://doi.org/10.36713/epra4790>



O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNI BAHOLASH MASALALARI

Otabek Rasulov Salimovich

Farg'ona politexnika instituti mustaqil izlanuvchisi

Email: otabekrasulov8400@gmail.com

Tel.: +998 90 628 00 71

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-sentabr 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-sentabr 2023-yil

Jurnal soni: 8

Maqola raqami: 15

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.807>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/
keywords

davlat boshqaruvi, o'zini-o'zi boshqarish, organlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, hudud

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishni baholash masalalari bayon qilingan. Tadqiqot ishiga doir bir qator ilmiy ishlar o'rganilib, o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishni baholashning ayrim jihatlari bayon qilingan.

Kirish. O'zbekiston Respublikasini hududiy rivojlantirish bo'yicha bugungi talab va ehtiyojlar ko'lamiga javob berish sharoitida o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy ta'minotini rivojlantirish zarurati, davlat boshqaruviga samarali yondashuvlarni rivojlantirish va transformatsiyalashning milliy maqsadlariga erishish zarurligi bilan asoslangan. O'zini-o'zi boshqarish organlarining o'zida mamlakat iqtisodiyotini tashkil etishning asosiy elementlaridan birini ifoda etadi, u O'zbekiston Respublikasining eng ko'p sonli ma'muriy-hududiy birliklari va mamlakat hududiy tuzilmasining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, davlat statistika xizmati ma'lumotlariga ko'ra ularning soni 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1062 tani tashkil etadi. Ular, shuningdek, aholi uchun eng yaqin hokimiyat bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi. Biroq o'zini-o'zi boshqarish organlari davlatning tartibga soluvchi siyosati bilan qamrab olinmagan, bir tomondan, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijalari uchun oshirilgan mas'uliyatini ifodalasa, boshqa tomondan, ham o'zini-o'zi boshqarish organlarini boshqarishning ichki tizimida, ham hokimiyatning yuqori darajalari bilan o'zaro munosabatlarda tashkiliy-boshqaruv xarakteridagi muammolar va disproporsiyalarning mavjudligini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda hozirgi vaqtda muammolarni aniqlash va ulardan zamonaviy sharoitlarni (jamoatchilik fikrining ahamiyati va ta'sirining o'sib borishi, boshqaruv jarayonlarining raqamlashuvi, mahalliy boshqaruvni baholashga yangicha talablarning shakllanishi, hududlar rivojlanishini strategik boshqarishning kompleks tizimini qurish zarurati va boshqalar) hisobga olgan holda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalarni shakllantirishga obyektiv zarurat mavjud. Jahon nazariyasi va amaliyotining tahlili hozirgi kunda ham o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining boshqarish tizimi mohiyatini tushunishga, ham uni boshqarishni baholashga yetarli darajada ko'p sonli turlicha yondashuvlarning mavjudligidan dalolat berib turibdiki, bu bir vaqtning o'zida ham hokimiyatning turli darajalari, ham mahalliy xizmatlarning bevosita iste'molchisi bo'lgan jamoatchilik va biznes subyektlari tomonidan monitoring va nazorat qilish jarayonini murakkablashtiradi. Shundan kelib chiqib, ayrim yagona uslubiy yondashuvni ishlab chiqish talab etiladi va u boshqarishni obyektiv baholashni o'tkazish, shu bilan birga, mahalliy darajada ijtimoiy va iqtisodiy siyosatni o'z vaqtida muvofiqlashtirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi boshqaruvida, mahalliy o'zini-o'zi boshqarishda shaffoflik va ochiqlik darajasining yetarli emasligi, ayrim ijtimoiy nazorat institutlari faoliyat yuritishining faqat rasmiy xarakter, shuningdek mahalliy xizmatlar sifatidan qoniqish darajasining pastligi, mahalliy hamjamiyatlarni o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining jarayoniga yanada faolroq jalb qilish, shu jumladan, quyi boshqaruvda va O'zbekiston aholisi hayotida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada faolroq qo'llash zaruratini asoslab beradi. Mahalliy darajada strategik rejalashtirish

sohasida tashkiliy-boshqaruv muammolari, strategik hujjatlarining shablon tusidaligi (hududiy o'ziga xoslik va mahalliy aholining jalb etilganligini hisobga olmagan holda o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli maqsadlariga erishish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa quyi darajada strategik rejalashtirishni amalga oshirish nazariyasi va amaliyotida shakllangan uslubiy yondashuvlarni tanqidiy qayta ko'rib chiqishning maqsadga muvofiqdligini asoslab, ushbu mavzuning dolzarbliligini bildiradi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot mahalliy va xorij olimlari tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy va nazariy manbalarga, o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining boshqarish mexanizmlarini qo'llashning samarali amaliyotiga tayanadi.

O'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining boshqarish tizimi faoliyatining nazariy asoslari A.G Aganbegyan, A.O Akulov, A.G Atayeva, Y.M Buxvald, G.Y Vetrov, N.V Voroshilov, A.G Granberg, A.P.Egorshin, V.B.Zotov, N.V.Zubarevich, V.A Lapin, Y.N Lapin, A.E Leshin, D.S Lvov, P.V.Stroyev, V.V.Trubnikov, R.V.Fattaxov, E.Fernandes, D Xarvi kabi olimlarning ilmiy ishlarida shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Jahon fani va amaliyotida hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni samarali boshqarishni baholashga doir turli yondashuvlar A.A Boj-Vol, Z.E.Vinokur, S.E.Dimodova, T.B.Dugarova, V.A.Kozbanenko, Y.N.Koroleva, M Makur, D.V Maslov, V.M Nikonorov, Y.V.Novikova, B Radey, Y.N.Sabn, M.N Sabn, I.G.Sangadiyeva, A.A.Sidorov, M.P.Silich, P.Staes, N.Ties, N.Yu Shagova. ishlarida ko'rib chiqilgan.

Bir qator tadqiqotchilar mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning shaffofligi va ochiqdligini ta'minlashning alohida ahamiyatini, shuningdek, jamoatchilik va biznes-tuzilmalarning o'zini boshqarish darajada boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirok etishining zaruriyatini alohida ta'kidlab ko'rsatishga qaramasdan, ommaviy mas'uliyat toifasi o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining boshqarish samaradorligini ta'minlovchi mexanizm sifatida ular tomonidan yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishga bag'ishlangan yondashuv va yo'nalishlar haqida bugungi kunda xilma-xil qarashlar va xulosalar mavjuddir. Biroq hozirgi vaqtgacha mazkur jarayonning mexanizmlari va harakatlaniruvchi kuchlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan, munozarali va hal etilmagan, nazariy, uslubiy va amaliy yo'nalishdagi masalalar qolib kelmoqda. O'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish nazariyasi nuqtayi nazaridan mazkur toifaning mazmuniga yagona yondashuv haligacha mukammal ishlab chiqilmagan bo'lib, bu o'z navbatida baholashning turli metodikalarini qo'llash samaradorligi va boshqarishning natijador mexanizmlarini tanlash bilan bog'liq muammolarni, va oxir-oqibatda ularni mazkur toifaning texnologiyalarni hisobga olgan holda o'zini-o'zi boshqarish

organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish tizimiga asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqqan holda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, taqqoslash kabi usullardan keng foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tarkibini fuqarolar yig'inlari, xususan, mahallalar tashkil etadi. Jamiyatda o'zini-o'zi boshqaruv tizimining muhim organi bo'lgan mahalla – bu, hududiy, kasbiy, turli yoshga oid va boshqa shu kabi turli xil ijtimoiy guruhlarning qiziqishi va irodasini o'zida mujassamlashtirib, ularni ijtimoiy hayotga joriy qiluvchi umumiy hamda alohida holatlarni namoyon qiladi.

“Mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bajaradigan vazifalar doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich topshirish lozim. Bunda eng muhimi, aholining kasb va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini yanada to'laroq ifodalash va himoya qilishda nodavlat, jamoat tuzilmalarining huquq va mavqeyilarini oshirish dardkor. “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” degan siyosiy qurilish dasturining mohiyati ana shunda yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan shunday yondoshuv fuqarolarning o'zlariga-o'zlari hayoti va butun jamiyat hayotini boshqarishda va teng tashkil etishda keng ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi”.

“Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi yangi tahrirdagi qonunning 7-moddasiga muvofiq :

- 1) bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalar faoliyati erkinlashtirildi;
- 2) mahallalar hokimiyat tizimidan chiqarildi;
- 3) qator imtiyozlar berildi;
- 4) boqimandalik kayfiyatidan ozod etildi;
- 5) “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyat sari” qadam tashlanadi.

Natijada mahallalar adolatli, demokratik jamiyatning negiziga aylanib bormoqda.

Demak, mahallalar o'zini-o'zi boshqaruv tizimida quyidagi ijtimoiy vazifalarni bajarib kelmoqda:

1. Mahalla – ona maskan. Oila ko'z ochib ko'rgan dargoh bo'lsa, mahalla Vatan ichidagi Vatandir. Vatan – eng oliy qadriyatdir.
2. Mahalla – avvalo sog'lom ijtimoiy muhitdir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarni adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda mahalla, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, haqiqiy demokratik darsxonadir.
3. Mahalla – tayanch markazi. Kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalar, yolg'iz keksalar va h.k. tayanchi hisoblanib kelmoqda.
4. Mahalla – ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, an'analar maskani.
5. Mahalla yoshlarni kasb-korga yo'naltiruvchi, ishsizlarni mehnat bilan ta'minlovchi ijtimoiy himoya hamdir.
6. Mahalla – tarbiya maskani. Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona
7. Mahalla – oila tinch-totuvligini, jipsligini mustahkamlaydigan joy. Otang – mahalla, onang – mahalla, deb bejiz aytilmagan.

Umuman, mahallalar o'z hududida ishlab chiqarishni tashkil etishi, kichik korxonalar ochishi, o'zi ishlab chiqargan mahsulotni sotishi, uning bir qismini mahalladagi ehtiyojmandlarga bepul tarqatishi, o'z hududidagi aholini ish bilan ta'minlashi, aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston hududida mahallalarni quyidagi 4 ta asosiy qismga ajratish mumkin:

- shaharlardagi an'anaviy mahallalar;
- shaharlardagi kvartal mahallalar;
- shaharchalardagi mahallalar;
- qishloq mahallalari.

Mahallalar ijtimoiy hayotida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- oila muhofazasi;
- obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va tozalik;
- ijtimoiy himoyada faol ishtirok etish;
- ma'naviyat va ijtimoiy huquqni shakllantirish;
- siyosiy faollikni oshirish va hokazo.

Hozirgi davrda mahallalarga bo'lgan qiziqish asosida dunyoda quyidagi institutlar amal qiladi:

1. Jamoalarning xalqaro ittifoqi (shtab- kvartirasi Gaagada)
2. Viloyatlar va shaharlarni boshqarish bo'yicha Xalqaro assotsiatsiya.
3. Jamoalarning Yevropa ittifoqi (markazi Parijda)
4. Yevropaning xalqaro ittifoqi va mahalliy hukumatlari kongressi. Yevropa Kengashining tashabbusi bilan 1985-yil “Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning Yevropa xartiyasi” qabul qilindi. Bu hujjat Yevropa davlatlari munisipal huquqining bosh manbayi bo'lib, uning vositasida o'zini-o'zi boshqarishning keyingi rivojiga yo'l ochildi .

Ayni paytda jahon miqyosida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish tizimining 3 ta asosiy modeli ajratib ko'rsatiladi.

1. Shimoliy Amerika
2. Janubiy Yevropa
3. Shimoliy Yevropa (yoki Skandinaviya)

Shimoliy Amerika modelida munisipalitetning faoliyat doirasi nisbatdan tor, fragmentar shaklda bo'lib, u asosan biznes maqsadlariga xizmat ko'rsatishga qaratilgan.

Janubiy Yevropa modeli (Fransiya va Italiya uchun xarakterli bo'lgan.) Bunda munisipal faollik nisbatan yuqori bo'lmasada, shunga qaramasdan mahalliy siyosiy manfaatlar siyosatiga millat darajasida ta'sir ko'rsata oladi.

Shimoliy Yevropa modeli. Bu model asosan Daniya, Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda amal qiladi. Bu mamlakatlarda munisipalitetlar ancha faol bo'lib, ular mahalliy va umumdavlat ahamiyatida bo'lgan keng doiradagi vazifalarni hal qiladilar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish modellari davlat sektoridagi bandlikka nisbatan ularga to'g'ri keladigan bandlik darajasi bo'yicha ham baho berish mumkin. Xususan, bu ko'rsatkich 2020-yil Daniyada 70 %, Norvegiyada 60%, Shvetsiyada 54% , AQSh da 50%, Buyuk Britaniyada 38%, Germaniyada 15%, Italiyada 12%, Fransiya 11% ni tashkil etgan.

Yalpi milliy mahsulotni iste'mol qilish bo'yicha ham bu mahalliy jamoalarning o'ziga xos ulushi mavjud. Masalan, bu ko'rsatkich Shvetsiyada 18,7 %, Daniyada 17,7%, Finlyandiya 13,5 %, Norvegiyada 13%, Buyuk Britaniyada 8,2%, Italiyada 7,4%, Niderlandiyada 7,5%, Fransiya 4,4% ni tashkil etadi .

Yuqorida aytib o'tilganidek, o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishning eng muhim mexanizmlaridan biri va strategik rejalashtirish va ommaviy javobgarlik uchun institusional asos sifatida, monitoring tizimi, o'zini-o'zi boshqarish organlarining joriy holati va strategik ijtimoiy-iqtisodiy holatining baholanishini baholashning tegishli uslubiyotini qo'llash vositasida tashkil etish va o'tkazishni ta'minlaydi. Ilm-fanda va amaliyotda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishni baholash uslubiyotining yetarli darajada ko'p miqdori shakllangan bo'lib, ular turli yondoshuvlar va tamoyillarga asoslangan, bu optimal o'lchov instrumentini tanlash muammosini asoslaydi. Buning ustiga, pozitsiyasi eng asoslangan hisoblanuvchi ekspertlar hisoblaydilar, uslubiyotlardan hech biri universal deb tan olinishi mumkin emas, chunki, bir tomondan, ulardan har biri tadqiqotning muayyan vazifalariga javob beradi, va tegishli ravishda bu qo'llaniladigan yondoshuvda aks etadi, boshqa tomondan esa – hududiy boshqaruv dinamik jarayon bo'lib, bu baholash mezonlarini doimiy qayta ko'rib chiqishda ifodalanadi.

Shu bilan bog'liq holda baholashning alohida ko'rsatkichlarining shakllanishi haqida emas, balki shunday uslubiyotni shakllantirish to'g'risida so'z yuritish maqsadga muvofiq, u, bir tomondan, o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'zaro bog'liq makro-osttizimlarining muayyan xususiyatlarini hisobga olish, boshqa tomondan – boshqaruv jarayonlarining dinamikligini hisobga olish, uchinchi tomondan – aniq hudud xususiyatlarini va uning aholisi va biznes manfaatlarini hisobga olish imkonini berib, bu o'zini-o'zi boshqarish organlarida ommaviy javobgarlik mexanizmining adekvat faoliyatini ta'minlashi mumkin. Buning uchun ayni vaqtga shakllangan baholashga yondoshuvlar va uslublarining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish zarur.

Tahlil qilinayotgan uslubiyotlarning har biri bitta yoki kompleks uslubiyotlarga asoslangan bo'lib, ular uni qo'llash imkoniyatini beradi: bular, statistik tahlil, ekspertlar va jamoatchilik baholashlaridir.

Baholashning amalda barcha uslubiyotlarida qo'llaniladigan, eng keng tarqalgan uslubi bo'lib, turli ko'rsatkichlarning statistik tahlili hisoblandi, u miqdoriy ko'rsatkichlarga tayangan holda, o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini u yoki bu sohasidagi o'zgarishlar darajasini kuzatib borish imkonini beradi, shuningdek, muayyan soha, tarmoqni tekzor monitoring qilish imkoniyatini taqdim etadi. Ta'kidlash muhimki, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar odatda ko'proq baholash uchun yetarli darajada katta ko'rsatkichlar ro'yxati, doimiy o'zgarib turadigan ma'lumotlar bilan xarakterlanadi, ular o'z navbatida har doim ham o'z vaqtida yangilab borilishi mumkin bo'lavermaydi. Muayyan holatlar ta'sirida, aynan texnik va antropogen cheklovlar natijasida, doimiy o'zgarib turuvchi katta miqdordagi ma'lumotlarni tahlil qilish sifatli tahlilni, bundan kelib chiqib esa, samarali va savodli boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtiradi.

Yana shuni aytib o'tish kerakki, mazkur uslub tizimning kompleks xarakterini aks ettirmaydi, o'zini-o'zi boshqarish organlarining holatini hududlarni sifatli strategik boshqarish uchun zarur bo'lgan barcha sohalarida yaxlit qabul qilish mavjud emas, bu oxir-oqibatda o'zini-o'zi

boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini samarali rejalashtirish va boshqarish uchun sharoitlarni yaratish imkonini bermaydi. Ajratib ko'rsatilgan kamchiliklarga qaramasdan statistik tahlil o'zini-o'zi boshqarish organlarining boshqarishni baholash uslubiyotida qo'llanilishi lozim, chunki u muhim trendlar va disproporsiyalarni aniqlash imkonini beradi, biroq ajratib ko'rsatilgan cheklovlarni hisobga olgan holda qo'shimcha uslublardan foydalanish bilan to'ldirilishi lozim.


Ikkinchi uslub bo'lib hududiy rivojlanishni boshqarish samaradorligini ekspertlar tomonidan baholash hisoblanib, uning mohiyati ekspertlar tomonidan hokimiyat mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari faoliyatining samaradorligi mezonlarini ajratish va ularni baholashdan iborat bo'ladi. Ekspert baholashlarining ahamiyati, shubhasiz, chunki buning uchun yuqori malakali mutaxassislar jalb qilinib, ular sifat va miqdoriy baholash uslublarini qo'llab, katta hajmli ekspertizani amalga oshiradilar. Biroq so'zsiz afzalliklariga qaramay, mazkur uslubning bir qator kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ulardan eng asosiylari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: baholashlarning subyektiv xarakteri va malakali ekspertlarning yetishmasligini aytish mumkin.

Bu uslub o'zini-o'zi boshqarish organlarining darajasi uchun alohida muhim bo'lib, aholining yoki uning ayrim guruhlarining turli mavzular va masalalar bo'yicha fikrini namoyon etuvchi ijtimoiy baholashlar hisoblanib, bu bir tomondan, qonunchilik talablari bilan asoslangan, bu yerda aholining mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralari faoliyatidan qoniqish ko'rsatkichlarini o'lchash zarurati qayd etilgan,

boshqa tomondan esa – ommaviy javobgarlik tamoyillarini amalga oshirish uchun sharoitlarni shakllantirish bilan asoslangan. Shundan kelib chiqib, jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha so'rovnomalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini baholashning ajralmas qismi bo'lib qolishi lozim. Shunga qaramasdan, jamoatchilik baholashlari uslubidan foydalanishda vujudga keladigan muayyan cheklovlarni hisobga olishga to'g'ri keladi: subyektiv xarakteri, shuningdek ularga mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralari vakolatiga kirmaydigan, tashqi omillar ta'siri ostidagi yuqori risklar; tanlovning reprezentativligini ta'minlash uchun so'rovnomalarda ishtirok etish uchun aholini maksimal jalb qilishning zarurligi, bu butun mamlakat bo'ylab hokimiyatga ishonchning yuqori emasligi sharoitida juda murakkab hisoblanadi.

Shunday qilib, o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qilishning ko'rsatib o'tilgan uslublaridan foydalanish xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning har biri qo'llashda muayyan afzalliklar va kamchiliklarga ega bo'lib, ular muayyan darajada o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishni baholash uslubiyoti doirasida ularni kompleks qo'llash vositasida tekislanishi mumkin.

Mavjud uslubiyotlarning tahlili ko'rsatadiki, nazariya va amaliyotda o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini tadqiq qilishda 1-rasmda taqdim etilgan to'rtta yo'nalish shakllangan.



1-rasm. O'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini baholashga yondoshuvlar .

Birinchi yondoshuvning mohiyati o'zini boshqarishdagi boshqaruv samaradorligi va natijadorligining amaliy tenglashtirilishida ifodalani, uning doirasida samaradorlikni baholash mahalliy hokimiyat ishining natijadorligiga muvofiq amalga oshiriladi, bu O'O'BBT ning erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini darajasida ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-avgustda tasdiqlangan, PQ-353-sonli "Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qaror asosida Mahalla instituti imkoniyatlaridan keng foydalanish, aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash bilan rasmiy qabul qilingan uslubiyot asosida yotadi.

Mazkur uslubiyotda 14 ta mezon iborat ro'yxat aniqlangan, o'sish yoki pasayish ko'rsatkichlari ifodalari ajratilgan bo'lib, ular bo'yicha u yoki bu mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organi faoliyatining samaradorligi aniqlanadi. Bunda №1317-sonli Qarorda tegishli sakkizta bo'limlari bo'yicha birlashtirilgan 27 ta qo'shimcha ko'rsatkichlardan iborat ro'yxat mustahkamlangan (iqtisodiy rivojlanish; maktabgacha ta'lim; umumiy va qo'shimcha ta'lim; madaniyat; jismoniy madaniyat va sport; uy-joy qurilishi va fuqarolarni uy-joy bilan ta'minlash; uy-joy-kommunal xo'jaligi; mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv boshqaruvni tashkil etish), shuningdek, mahalliy shahar okruglari va mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv tumanlar ma'muriyatlari ma'ruzalarining shakli tasdiqlangan. Taqdim etilgan ko'rsatkichlar ham miqdoriy absolyut,

ham nisbiy xarakterga ega. Shuningdek, aholining O'O'BO hududidagi xizmatlardan qoniqish darajasini tavsiflovchi sifat ko'rsatkichlari ham ko'zda tutilgan.

Mazkur uslubiyot muayyan tarzda o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini samaradorligini baholashga yagona yondoshuvni amalga oshirishni, va shu orqali ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni taqqoslashni o'tkazishni ta'minlaydi. Uning yutug'i bo'lib yana, shuningdek, boshqarishning yangi uslublarini, yer-mulkchilik munosabatlarini, aholi turmush sifatini, shu jumladan aholi o'rtasida so'rovnoma o'tkazish orqali jamoatchilik baholashi uslubidan foydalanib, joriy etishni xarakterlovchi bloklarning mavjudligi hisoblanadi. Bundan tashqari, shaffoflik tamoyiliga rioya qilish ta'minlanadi, chunki o'zini-o'zi boshqarish organlarining rahbarlarining ma'ruzalari internetga ochiq holda joylashtiriladi.

Xulosa va takliflar. O'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishni baholashga yondoshuvlar va uslubiyotlarning o'tkazilgan tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

a) O'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini natijalari samaradorligining yagona tushunilishi va aniq mezonlari mavjud emas. Bunda universal yondoshuvni ishlab chiqish murakkabligi tufayli hududlar uchun rejali indekslar va ko'rsatkichlarni aniqlashning maqsadga muvofiqligi masalasi o'rinni bo'ladi.

b) Samaradorlikni baholashning qo'llanilayotgan ko'rsatkichlari va indikatorlari ko'pincha mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sohasidagi bevosita faoliyatini emas, balki

boshqa sohalar va hokimiyatlar darajalari hisobiga erishilgan natijalarni, shu jumladan, birlamchi boshqa sharoitlar hisobiga, tavsiflaydi.

v) Taklif etilayotgan kompleks uslubiyotlar ko'pincha asossiz ravishda o'xshash yoki o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini bevosita boshqarish bilan bog'liq bo'lmagan ko'rsatkichlar miqdori bilan yuklab yuborilgan, bu mehnat sig'imini oshiradi va bunda boshqarishning mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv tizimi uchun zaruriy samarani ta'minlamagan holda.

g) Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish tizimining o'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish samaradorligining haqiqiy baholashini o'tkazishga ichki tayyor emasligi, bu kasbiy madaniyat, motivatsiya va javobgarlikning rivojlanish darajasi yetarli emasligida namoyon bo'lib, bu baholash

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent sh., 2013-yil 22-aprel, O'RQ-350-son. <https://lex.uz/acts/2156899>

2. Гайнанов Д.А. Управление социально-экономическим развитием региона: проблемы, подходы, технологии : монография / Д.А. Гайнанов, М.М. Низамутдинов, В.В. Печаткин [и др.] – Москва: Экономика, 2007. – 264 с. – 200 экз. – ISBN 978-5-282-02811-9.

amaliyotini formallashtiradi va uning real natijadorligini tekislab qo'yadi.

d) Ayrim ko'rsatkichlar va indikatorlar, ayniqsa, ekspert va jamoatchilik baholashlarini qo'llash bilan bog'liq bo'lganlarini o'lchash murakkabligi va bir xil xarakterda emasligi, shuningdek, o'zini-o'zi boshqarish organlari ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarining yagona obyektiv axborot bazasining mavjud emasligi, bu hisob-kitoblarni murakkablashtiradi.

e) Strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yo'naltirilganlikning namoyon bo'lmaganligi, chunki ko'rib chiqilgan uslubiyotlardan ko'pchiligi qisqa muddatli va kamdan-kam holatlarda – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'rta muddatli davrlari yakunlari bo'yicha baho beradilar.

3. Бабун, Р.В. Организация местного самоуправления / Р.В. Бабун. – Москва: КноРус, 2010. – 224 с. – ISBN 5-230-20825-2.

4. Егоршин, А.П. Стратегическое управление инновационным развитием коммерческой организации / А.П. Егоршин, С.Г. Филимонова, А.В. Яшин // Экономика и управление. – 2007. – № 6 (32). – С. 90-95. – ИССН 1998-1627.

5. Европейская хартия местного самоуправления. - М, 1998

6. Полис. 2021, №2, 158 – бет



TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYA OMILLARIDAN FOYDALANISHNING ZARURIYATI

Umirova Gulmira Shodiboy qizi

Jizzax politexnika instituti

Iqtisodiyot va menejment kafedrasida assistenti

umirovagulmira2@gmail.com

(97)-328-47-47

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-sentabr 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-sentabr 2023-yil

Jurnal soni: 8

Maqola raqami: 16

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.808>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

kichik biznes, tadbirkorlik, YAIM, motivatsiya, chakana savdo, daromad, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi.

ANNOTATION

Jahon mamlakatlari milliy iqtisodiyotlari tarkibining o'zgarishi, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarining ustuvor ahamiyat kasb etishi hamda xo'jalik faoliyatining ijtimoiylashuv jarayonlarining jadallashuvi zamonaviy ijtimoiy mehnat munosabatlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflaydi.

Kirish. Bugungi kunda "rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va tadbirkorlik ish o'rinlarining 60-70 foizini tashkil qiladi. Binobarin, ular rivojlangan mamlakatlarda YAIMning 55% ni tashkil qiladi. Kichik biznesda ham barcha chakana savdo xodimlarining 39,8 foizi ishlaydi. Chakana savdo firmalaridan o'rtacha oylik daromad 22341 AQSH dollari tashkil qiladi. Ushbu firmalarning o'rtacha yalpi marjasi 51% ni tashkil qiladi va egalari daromad olganlarida yirik mahalliy zanjirlarda qayta sarmoya kiritishga moyildir".¹

O'zbekiston Respublikasida ham tadbirkorlikning rivojiga katta e'tibor qaratilishi natijasida mazkur faoliyat turi milliy iqtisodiyotning yetakchi sektoriga aylangan. Bugungi kunda tadbirkorlikning hissasiga yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'pi, ish bilan bandlarning 80% ga yaqini to'g'ri keladi. Shunday ekan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, oilalar daromadi va ularning farovonligi, yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi aynan ushbu tadbirkorlik rivojiga bog'liq.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilangan".² Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu sohani iqtisodiy mazmuni, unga ta'sir etuvchi omillarni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish zamon talabi hisoblanadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Bu – xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va ularning ta'sirchan himoyasini ta'minlashdir".³

Iqtisodiy islohotlar sharoitida rag'batlantirish tizimidan motivatsiya tizimiga o'tishning uddasidan chiqqan korxonalar yuqori raqobatbardoshlik darajasiga erishgan. Bu tushunchalarning o'zgarishigina emas, balki juda yuqori darajali iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biridir: xodimlar motivlarining barcha rang-

barangligi va o'ziga xosligi rag'batlantirish tizimi o'rini egallagan mos keluvchi motivatsiya tizimida aks etadi.

Yangi O'zbekistonda zamonaviy iqtisodiy jarayonlarning innovatsion yo'naltirilganligi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, mazkur faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini oshirish va ularning ilmiy-uslubiy va nazariy asoslarini tadqiq qilish asosida motivatsiya omillaridan foydalanish yo'llarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish lozim bo'lib, u mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili. Tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari, zamonaviy bozor iqtisodiyotidagi uning roli O'zbekiston va chet el olimlari tomonidan chuqur o'rganib chiqilgan. Butun dunyoga mashhur chet el iqtisodchilarining ko'plab ilmiy asarlarida zamonaviy bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish muammolarining nazariy hamda amaliy jihatlarini ko'rib chiqilgan. Iqtisodiyotni rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va tadbirkorlik va unda innovatsion faoliyatning ahamiyati bilan bog'liq mavzularni, DJ.Fridman A.Smit, M.Blaug, S.L.Bryu, K.Vesper, P.Druker, R.Kantilon, Ya.Kornai, A.Marshall, S.Erlix, Dj.M.Keyns Pol, E.Samuelson, K.R.Makkonell, F.Kotler, D.Pirson, T.Piters, K.Rendoll, J.-B.Sey, F.Uoker, I.Shumpeter, F.Fon Xayek, A.Shapiro, X.Shvalbe kabi olimlar o'rganishgan.⁴

O'zbekistonning ko'plab olimlari, shu jumladan, M. Sharifxo'jayev, X.P.Abulqosimov, A.V.Vaxobov, T.Jo'rayev, Q.X.Abduraxmonov, B.X. Umurzakov, Yo.Abdullaev, Boltaboyev M.R., M.R.Rasulev, H.O.Rahmonov, I.E.Tursunov, B.Yu.Xodiyev, M.Xadjimuratov, Z.Y.Xudoyberdiyev, T.Sh.Shodiyev, G.Abdurahmonova va boshqalar shug'ullanib kelishmoqda. Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishda mehnat munosabatlari bo'yicha tadqiqotlar mavjud bo'lsada, ularda aynan motivatsiya omillaridan foydalanish yo'llarini takomillashtirish tadqiq etilmaganligi ilmiy ishning yanada dolzarbligini belgilaydi.⁵

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan. Ushbu tadqiqot ma'lumotlari rasmiy manbalardan olinib, taniqli iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotimizni rivojlantirishda tadbirkorlikni rivojlantirish muammolarini ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish, xorij tajribalarini umumlashtirish va mamlakatimizda erishilayotgan yutuqlar bo'yicha olingan natijalarga tayangan holda innovatsion tadbirkorlikni o'rganishga erishilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risidagi farmoni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son)

² Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: NMIU 2017. 39-bet.

³ Smiljanic Stasha. Small Business Administration, 2022.

URL:<https://policyadvice.net/insurance/insights/small-business-statistics/>

⁴ Фридман ДЖ. Петти В, Смит А., Рикардо Д. Сочинения // Классика экономической мысли. – М.: ЭКСМО Пресс, 2000. – 164 с.; Кантillon P. Основы предпринимательской деятельности. Москва: 2001. – 44 с.; Marshall A. Industry and trade. – Vani Prakashan, 2015. – 556 p. Пол Э. Самуэльсон, Вильям Д. Нордхаус. Экономика. – Издательство: Вильямс, 2015. – 1360 с.;

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01. 2020

Natijalar va muhokama. Inson kamoloti indeksida uchta asosiy omillar – uzoq va sog'lom hayot kechirish, bilim olish va munosib turmush darajasi hisobga olinadi, munosib turmush darajasi esa ko'proq tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga asoslanadi. Uning yechimi sifatida esa "Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish demakdir. Shuning uchun Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birga Kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishni taklif etaman. Bu borada xalqaro me'yorlar asosida chuqur o'rganishlar o'tkazilib, kambag'allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan yangi metodologiyani yaratish lozim".⁶

Shu o'rinda tadbirkorlik tushunchasining iqtisodiy mohiyatiga e'tibor qaratsak, bu bozor iqtisodiyotining asosi, iqtisodiy o'sish sur'atlarini, yalpi milliy mahsulot tarkibi va sifatini, aholining ish bilan bandligi va daromadi darajasini belgilaydigan yetakchi sektorlardan biri hisoblanadi. Uni rivojlantirish moslashuvchan aralash iqtisodiyotni shakllantirish umumjahon xususiyatiga ega. Shuning uchun butun dunyoda tadbirkorlikni har taraflama keng rivojlantirishga birinchi darajali e'tibor qaratiladi.

Tadbirkorlarning faolligi davlatning demokratlashtirilishi va milliy iqtisodiyot ochiqligi, ishbilarmonlik muhiti asosiy mezonlaridan biridir. Jahondagi ko'pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti kichik biznes aholining ish bilan bandligini ta'minlash va daromadini ko'paytirishning eng muhim vositasi ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mazkur soha rivoji ish bilan bandlik va mehnat munosabatlarini takomillashtirishda alohida o'rin egallaydi. So'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish borasida amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, bu bo'yicha qabul qilinayotgan qator dasturiy yo'nalishlar mazkur sohaning rivojlanishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida keng ko'lami islohotlar bevosita tadbirkorlik rivoji bilan bog'liq. Chunki kichik biznes yirik biznesga nisbatan bir qator raqobat ustunliklariga ega ekanligi bilan farqlanadi, xususan, kichik biznesning moslashuvchanligi va ixchamligi biznesning muhim belgisi bo'lib, zamonaviy biznes sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlikni – kapitalni yo'naltirishning yangi sohalari izlash, mavjud mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirish va yangilarini yaratish, shaxsiy ustuvorlikni rivojlantirish, daromad olish uchun turli imkoniyatlardan samarali foydalanish deb ta'riflash mumkin. Shu bilan birga tadbirkorlik bozor uchun yangi mahsulot ishlab chiqarish, faoliyat sohasining o'zgartirilishi yoki yangisi korxonaga yoki tarmoq barpo etilishida majburiy foydalanish deb tavsiflanadi. Tadbirkorlik mohiyatini idrok etishda tadbirkorlarning o'zaro bog'liq to'rt faoliyatini alohida ko'rsatgan amerikalik iqtisodchilar R.Mak Konnell va S.Yu. Bryularning quyidagi nuqtayi nazarlari alohida ahamiyat kasb etadi:

– tadbirkor yer, mablag' va mehnat resurslarini mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmat jarayoniga birlashtirish tashabbusini o'z zimmasiga oladi;

– tadbirkor biznesni olib borish jarayonida asosiy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishni, ya'ni biznesni rivojlantirish yo'nalishlari, korxonaga faoliyati yo'nalishini belgilovchi operatsiyalarni o'z zimmasiga oladi;

– tadbirkor yangi mahsulot (xizmat)larni ishlab chiqarishga intiluvchi, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi yoki biznesni tashkil qilishni va rivojlanishning yangi shakllarini olib kiruvchi tashabbuskor shaxsdir;

– tadbirkor tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan xavfni o'z zimmasiga oladi, zero, tadbirkor uchun daromad olish kafolatlanmagan, sarf etilgan vaqt, harakat va qobiliyatlardan daromad olish barobarida zarar ko'rish ham mumkin. Bunday hollarda tadbirkor nafaqat o'zining o'z vaqti, mehnati va ishbilarmonlik obro'si bilan, balki sarf etilgan mablag' bilan ham tavakkal qiladi. Shunday qilib, ijodkorlik tadbirkorlik vazifalaridan biri bo'lib, tadbirkorlik faoliyatida doim mavjud bo'lishi shartdir.

Akademik Q.X.Abduraxmonovning fikricha "Kichik biznes – bozor iqtisodiyotining asosi, iqtisodiy o'sish sur'atlarini yalpi milliy mahsulot tarkibi va sifatini, aholining ish bilan bandligi va daromadi darajasini belgilaydigan yetakchi sektor hisoblanadi. Shuning uchun

butun dunyoda kichik biznesni har taraflama keng rivojlantirishga birinchi darajali e'tibor qaratiladi".⁷

Tarix tadbirkorlik mehnat taqsimoti ro'y bergan, kapital mavjud bo'lgan, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi amal qilgan barcha jamiyatlarda rivojlanganidan dalolat beradi. Biroq tadbirkorlikni baholashga dastlabki tizimli yondoshuv XVII asrning oxiri – XVIII boshlarida ro'y berdi. "Tadbirkor" va "tadbirkorlik" tushunchalarini hozirgi davr ma'nosida ilk bor ingliz iqtisodchisi Richard Kantilon qo'llagan. U vafotidan keyin – 1755-yilda nashr etilgan "Umuman savdo xususiyati to'g'risidagi esse" asarida "tadbirkor" atamasini muomalaga kiritib, bunday shaxs muayyan narsani falon narxda sotib olib, piston narxda sotadi, ya'ni ma'lum darajada tavakkalchilik qiladi, deb ko'rsatgan.

"Tadbirkorlik" atamasi dastlab qadimgi yunon huquqida "tijorat faoliyati" deb tushunilgan. Metodologik nuqtayi nazardan mazkur atamani hayotga tatbiq etgan fransuz iqtisodchisi R.Kantilon hisoblanadi (fransuz tilidan "tadbirkorlik" vositachi deb tarjima qilinadi)⁸. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyat jarayonini tahlil etish va bu boradagi muammolarini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etganligi bois, uni ilmiy – nazariy o'rganish, huquqiy asoslarni o'rganish va kelajakda yanada rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi.

Tadbirkorlik va uni baholash bo'yicha uslubiy xilma-xilliklar uning jamiyatda tutgan o'rnini turlicha baholashga asos bo'lmoqda. Bularni bir tizimga keltirib xulosa qilinsa, erkin tadbirkorlik shaxsiy tashabbusga asoslangan, o'z mol-mulki hisobidan yuqori daromad olishdan manfaatdor va uning xavf-xatariga bardoshli, haq-huquqlari kafolatlangan, qonun doirasida faoliyat yuritadigan, bozor xo'jaligini tashkil etish va boshqarishning mustaqil faoliyat turi hisoblanadi.

Umumiy tarzda "tadbirkorlik" va "biznes" tushunchalarining iqtisodiy mohiyati bir-biridan deyarli farq qilmaydi, lekin mazkur farqlanish iqtisodiy munosabatlar, mulkiy ma'suliyat va javobgarlikda o'ziga xos xususiyatlarni ifodalaydi. Biznes mohiyatan pul topish yo'lidagi harakat, boylikni oshirish, mulkni boyitishga intilish, aniq bir faoliyat turi bilan doimiy shug'ullanish, o'zidagi iqtisodiy, moliyaviy, intellektual imkoniyat, qobiliyat va sharoitlarni ishga solish orqali natijalar sifatida talqin qilinsa, tadbirkorlik – bu innovatsion faoliyat sifatida yangilikka intilishdir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va unga keng yo'l ochib berish aholini bandligini samarali ta'minlash va bu orqali aholi farovonligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Jahon tajribasini o'rganish bozor sharoitida tadbirkorlikni yuritish, uning rivojlanishini turli institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlash, samarali raqobat muhitini yaratish shakllari va usullaridan eng maqbulini tanlash imkonini beradi. Bundan tashqari, O'zbekistonda va rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish raqobat muhiti, xususan, raqobatbardoshlikning rivojlanish holatini baholash usullaridan biri hisoblanadi.

Tadbirkorlikning rivojlanishida motivatsiya – tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish, uning rentabelligini oshirish va xizmat ko'rsatish turarini kengaytirishda xo'jalik yuritishning an'anaviy usullaridan foydalangan holda, xodimlarning unumli mehnat qilishga undovchi rag'bat omillaridan samarali foydalanish faoliyat turidir. Kichik biznes esa tadbirkorlik shakllaridan biri sifatida namoyon bo'ladi hamda alohida tadbirkorni rag'batlantirishning birmuncha oddiy va yanada samaraliroq tizimiga ega bo'lib, qo'shimcha urinish va harakatlarni rag'batlantiradi va ishdagi kamchiliklarni bartaraf etadi.

Dunyoning bir qator davlatlarida maxsus hukumat tashkilotlari sifatida AQSHda – SBA, Buyuk Britaniyada – "Kichik biznesga xizmat ko'rsatish milliy Agentligi" (SBS), Germaniyada – "Kichik va o'rta biznes bosh Direktorati" (DG VIII), Yaponiyada – "Kichik va o'rta tadbirkorlik Agentligi" (SMEA), Koreyada – "Kichik va o'rta biznes administratsiyasi" tashkil etilgan va bugungi kunda kichik biznesni rivojlantirish yo'lida faoliyat ko'rsatmoqda".⁹

Qo'shni mamlakatlardan Xitoy tajribasi bizda katta qiziqish uyg'otadi. U yerda statistika ma'lumotlari shundan dalolat berib turibdiki, Xitoy korxonalarining 99 foizi kichik va o'rta korxonalar toifasiga kiradi va ular yalpi ichki mahsulotning 55 foizidan ko'pini ishlab chiqarish bilan birga mamlakat ishchi kuchining 75 foizidan foydalanadi. Eksport hajmining 60 foizidan ortig'i va soliqlardan keladigan daromadlarning taxminan 45 foizi kichik va o'rta korxonalar tomonidan ta'minlanadi.

⁶ Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. –T.: O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2019. - 568 B.

⁷ Предпринимательство: Учебник для ВУЗов Под. Ред.В.Я.Гордиенко, Г.В.Поляка, Швандара. –М.: ЮНИТИ, 1999.

⁸ Sirojiddinov I., Hojiboyeva I. Hududlarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish. Iqtisodiyot va ta'lim. -T.: 2017 № 4. - B. 36

⁹ Малое предпринимательство в России: прошлое, настоящее и будущее. Под ред. Б.Г.Ясина, А.Ю.Чепуренко, В.В.Буева. – М.: Фонд "Либеральная миссия", 2003. – С. 137.

Ayrim rivojlangan mamlakatlar AQSH, Yaponiya, Xitoy, Hindiston va Buyuk Britaniyada kichik biznes subyektlarini aniqlash mezonini faoliyat turiga qarab ishchilar soni, yillik daromadi, kapital qo'yilmalar miqdori, asosiy fondlar miqdori va yillik aylanmalar miqdori belgilangan (1-jadval). Tahlil ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AQSH, Yaponiya, va Kanadada kichik biznesni aniqlash mezonini ishchilar soni va yillik daromadi bilan aniqlanadi. Yevropa mamlakatlari Germaniya, Fransiya va Italiyada kabi mamlakatlarda kichik biznes subyektlari mikrofirmalar, kichik va o'rta korxonalar

bo'linib, mezon sifatida ishchilar soni, kapital qo'yilmalar miqdori va yillik oborot ko'rsatkichlar belgilangan. Shuningdek, Rossiya, Xitoy va O'zbekistonda ham kichik biznes subyektlarini aniqlash mezonini faqat ishchilar soni belgilangan.

Motivlashtirish nazariyasiga asoslanib uning turli modellari ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanib kelinmoqda. Ularning asosiylari quyidagilardir oqilona (ratsional) model, insoniy munosabatlarni motivlashtirish modeli, kompleks motivlashtirish modeli.

1-jadval

Ayrim rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesni aniqlash mezonlari¹⁰

Davlatlar	Mezonlar	Mikro-firmalar	Kichik korxonalar	Motivatsiya strategiyasi
AQSH	Ishchilar soni	50 kishigacha	100 dan 1500 kishigacha	Rag'batlantirish va jazo strategiyasi
	Yillik tushum	\$ 0,75 mln. dollargacha	\$10 mln. dan \$38 mln. gacha	
Kanada	Ishchilar soni	49 kishigacha	50 dan 500 kishigacha	Rag'batlantirish va jazo strategiyasi
	Yillik tushum	\$ 5 mln. dollargacha	\$10 mln. dan \$ 50 mln.gacha	
Yaponiya	Ishchilar soni	Ishlab chiqarishda 100 tagacha	Boshqa faoliyat turlari 100-300 tagacha	Menejerlar bilan doimiy aloqada bo'lish strategiyasi
	Yillik tushum \$ ming	\$474 mingga 2844 mingga	\$ 948 mingga	
Xitoy	Ishchilar soni (kishi)	100 tagacha	300 tagacha	Ish orqali motivlashtirish
	Yillik foyda	Faoliyat turiga qarab 20 mln.yuandan 100 mln.yuangacha		
	Yillik daromad	Tadbirkorlik daromadi \$ 500 ming dan \$ 1 mln.gacha		

Motivlashtirish strategiyasini tanlashda uchta yondoshuv mavjud:

1. Rag'batlantirish va jazo strategiyasi, ya'ni kishilar mukofot olish uchun ishlaydilar:

- kim ko'p va yaxshi ishlasa, unga yaxshi haq to'lanadi;
- kim undan ko'p ishlasa shunchalik ko'p haq to'lanadi;
- kim sifatsiz ishlasa, u jazolanadi.

2. Ish orqali motivlashtirish: xodimga uni qoniqtiradigan ishni bersangiz bas, ijro etish sifati yuqori bo'ladi.

3. Menejerlar bilan doimiy aloqada bo'lish strategiyasi: bo'yunuvchilar bilan birga maqsadni aniqlab olish, unga ijobiy aks aloqaga imkon berish, hattoki u to'g'ri yoki noto'g'ri, yoxud yangilishgan hollarda ham. Bu motivlashtirish modeli rahbar bilan xodim o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish va unga ustuvorlik berishga asoslanadi.

Xitoy tajribasida motivlashtirishning quyidagi usullari qo'llaniladi: – pulni rag'batlantirish va mukofotlash sifatida ishlatish; jazolash; raqobatni kuchaytirish; ish orqali motivlashtirish; yutuqni tan olish va taqdirlash; xodimlarni o'qitish va yuksaltirish; salbiy ta'simi cheklash va me'yoriylash; guruh mehnatini mukofotlash va rag'batlantirish; xodimlarni boshqarish ishlariga jalb etish va h.k.

Xulosa va takliflar. Tadbirkorlarning faolligi davlatning demokratlashtirilishi va milliy iqtisodiyot ochiqligi, ishbilarmonlik muhiti asosiy mezonlaridan biridir. Jahondagi ko'pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti kichik biznes aholining ish bilan bandligini ta'minlash va daromadini ko'paytirishning eng muhim vositasi ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026*yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risidagi farmoni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son)

Bizning fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimi faoliyati subyektlarining tadbirkorlik faolligini oshirish yo'nalishlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: tadbirkorlik imkoniyatlarini ishga soladigan yo'nalishlar, biznes faoliyati natijalarini yaxshilashga qaratiladigan yo'nalishlar.

Motivatsiya omillaridan foydalanish tadbirkorlikni rivojlantirishda ruhiy omil bo'lib, shaxs faolligining manbai, sababi, dalili va har xil turli ehtimollardir. Motivatsiya xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga rag'batlantiruvchi kuchli vosita hisoblanadi, demak motivlashtirish – bu kishilar faoliyatini ruhiy yo'llar bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir.

Tadbirkorlikda motivlashtirish bu kishilar faoliyatini ruhiy yo'llar bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir. U muayyan ehtiyojni qondirish bilan bog'liq. Ehtiyoj esa sabablarda namoyon bo'ladi. Inson tirik jon sifatida ovqat yeyish, uxlash, dam olib o'z kuchini tiklash, o'zini issiq-sovuqdan asrash ehtiyojlariga ega. Mazkur ehtiyojlar moddiy, ya'ni kiyim-kechak, ozni-ovqat, turar joy va boshqalar shaklida ifoda etiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirishning mehnat faoliyatini tashkil etish xususiyatlari, vazifalari, tarkibi va taraqqiyot asoslarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonni rivojlantirishning mehnat faoliyatini baholashda uslubiy yondashuvlarga majmuaviy asosda ko'rib chiqish ilmiy zaruriyat hisoblanadi. Mazkur sohada islohotlarni takomillashtirish uchun olib borilayotgan ijtimoiy- tashkiliy tadbirlarga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz.

2. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: NMIU 2017. 39-bet.

3. Smiljanic Stasha. Small Business Administration, 2022. URL:<https://policyadvice.net/insurance/insights/small-business-statistics/>

¹⁰ <http://www.giac.ru>. © ИП.Московский центр развития предпринимательства маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

4. Фридман ДЖ. Петти В, Смит А., Рикардо Д. Сочинения // Классика экономической мысли. – М.: ЭКСМО Пресс, 2000. – 164 с.; Кантильон Р. Основы предпринимательской деятельности. Москва: 2001. – 44 с.; Marshall A. Industry and trade. – Vani Prakashan, 2015. – 556 p. Пол Э. Самуэльсон, Вильям Д. Нордхаус. Экономика. – Издательство: Вильямс, 2015. – 1360 с.;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01. 2020
6. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. -T.: O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2019. - 568 B.
7. Предпринимательство: Учебник для ВУЗов Под. Ред.В.Я.Гординкея, Г.Б.Поляка, Швандара. –М.: ЮНИТИ, 1999.
8. Sirojiddinov I., Hojiboyeva I. Hududlarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish. Iqtisodiyot va ta'lim. -T.: 2017 № 4, - B. 36
9. Stat.uz
10. <http://www.m-economy.ru>



MADANIY MEROS TURIZMI: ASOSIY TENDENSIYALAR, RIVOJLANISH VA MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON VA TURKIYA MISOLIDA)

Omonjon Umarov

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

umarovomonjon@gmail.com

Parizoda Mirboboyeva Umidjonqizi

Qo'qon universiteti talabasi

mirboboyevaparizoda@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-sentabr 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-sentabr 2023-yil

Jurnal soni: 8

Maqola raqami: 17

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.809>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

madaniy turizm, merosga boy tarix, O'zbekiston va Turkiya madaniy turizmi, moddiy va nomoddiy madaniy meros, infratuzilma, iqtisodiy rivojlanish

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi eng boy madaniy merosga ega O'zbekiston Respublikasida madaniy turizmni o'rni va hozirgi vaqtga kelib madaniy turizmni qay darajada tashkil etilayotganini baholash va taqqoslash maqsadida xalqaro turizm bozorida yuqori reytinglarga chiqib kelayotgan qardosh Turkiya davlati misolida rivojlanish konsepsiyasi va tendensiyasi yoritilgan. Shu bilan qatorda mamlakat jahon bozori reytingida o'z o'rnini oshirishi uchun bir qancha taklif va mulohazalar berib o'tilgan. Hududning tarixiy saqlanishi bilan bir qatorda marketing sohasi bo'yicha bir qancha strategik rejalar va tavsiyalar ham mavjud. Shuningdek, maqolada madaniy meros turizmi bo'yicha g'arb davlatlarining bu sohada tadqiqot va tajribalari misolida o'z mamlakatimiz rivojlanishi uchun kerakli strategiyalarni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kirish. Madaniy meros muhim ahamiyatga ega, chunki u bizni o'tmishimiz bilan bog'laydi va o'zligimizni tushunishga yordam beradi. Shuningdek, bu jamoalar uchun faxr va zavq manbayi. Madaniy meros jamiyat madaniyatining avloddan avlodga o'tib kelayotgan barcha jabhalarini o'z ichiga oladi. Bu moddiy yoki nomoddiy bo'lishi mumkin. Moddiy madaniy merosga binolar, yodgorliklar, san'at asarlari va artefaktlar kabi jismoniy obyektlar kiradi. Nomoddiy madaniy merosga og'zaki yoki amaliyot orqali o'tadigan an'analar, urf-odatlar, e'tiqodlar, bilim va ko'nikmalar kiradi.

O'zbekiston 2500 yildan ortiq tarixga ega bo'lgan boy va xilma-xil madaniy merosga ega bo'lgan Markaziy Osiyo hududida joylashgan davlatlardan biri sanaladi. Bu meros ko'plab madaniy diqqatga sazovor joylar, jumladan, arxeologik joylar, tarixiy yodgorliklar, muzeylar, an'anaviy san'at va hunarmandchilikda o'z aksini topgan. Madaniy turizm O'zbekiston turizm sanoatining rivojlanib borayotgan tarmog'i bo'lib, u mamlakat iqtisodiyotida hozirgi vaqtga kelib muhim o'rinni egalladi.

Turkiya esa, 10000 yildan ortiq tarixga ega boy va xilma-xil madaniy merosga ega mamlakatlardan biridir. Ushbu meros ko'plab madaniy diqqatga sazovor joylar, jumladan, arxeologik joylar, tarixiy yodgorliklar, muzeylar va san'at galereyalarida o'z aksini topgan. Madaniy turizm Turkiya turizm industriyasining asosiy sohalardan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinni tutadi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda madaniy turizmni ommalashtirish usullari joriy asrdan tadqiqotchilar orasida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Lekin mamlakatimizda aynan Turkiya va O'zbekiston davlatlarini taqqoslash va rivojlantirish bo'yicha konsepsiyalar yo'qligi izlanishlarim natijasida ma'lum bo'ldi. Xorij olimlarining tadqiqotlari maqolamning ushbu qismida joy olgan. Ular olib borgan tadqiqot va rivojlanish bo'yicha konsepsiyalari ko'rib chiqiladi.

Turizm bo'yicha o'tgan va joriy rejalar va dasturiy hujjatlar, shuningdek, hukumat vakillarining nutqlari mazmunan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkiya madaniy joydan ko'ra ko'proq quyosh, dengiz va qum manzili sifatida mavqega ega bo'lgan. Davlat Planlash Tashkilotining Besh yillik Rivojlanish Rejalari, shuningdek, Turizm (Vizyon 2023) kabi Turkiya uchun o'tmish va joriy turizm rejalariga ko'ra, madaniy turizm Turkiya uchun ko'proq muqobil va ikkinchi darajali turizm turi sifatida ko'rilmoqda deb izohlaydi "Mehmondo'stlik va turizm tashkiliy barqarorlik" mavzusi bo'yicha tadqiqot o'tkazgan Fevzi Okumus.¹

Ko'p yillar davomida turizm meros va globallashtirish o'rtasidagi munosabatlarni tahliliy ravishda ifodalashning asosiy usullaridan biri

bo'lib kelgan. 1970-yillardan buyon o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar turizmning kelishini zamonaviylik, modernizatsiya va keng tarqalgan ijtimoiy o'zgarishlarning qo'zg'atuvchisi sifatida ko'rib chiqdi. Maqolaning ushbu bobi nima uchun ushbu sohada hozirgi munozaralar yo'nalishini o'zgartirishi kerakligini va nima uchun bugungi global turizm sanoatining voqealarini yaxshiroq aks ettiruvchi ramkalar ishlab chiqilishi kerakligini ko'rsatishga qaratilgan.

Madaniy barqarorlik, turizm va rivojlanish va o'zgarishlar masalalarini o'rganish uchun qanday obyektiv taqdim etishini ko'rib chiqadi. Unda madaniy va tabiiy boyliklar, badiiy aralashuvlar, joyning o'ziga xosligi, siyosat strategiyalari va jamiyat farovonligi turistik joylarda yuzaga keladigan joyning (qayta) artikulyatsiyasi va mahalliy dinamikada qanday bog'langanligi muhokama qilinadi.

Madaniy meros va rivojlangan mamlakatlarda turizm sohasida o'tkazgan bir qator tadqiqotlarida G'arb davlatlari rivojlanayotgan boshqa turizm industriyasi bilan bog'liq bo'lgan davlatlarga chegara qo'yib kelgani yokida ularning tizimi bo'yicha islohot va innovatsiya kiritilishini aytib o'tganligi ma'lum. Aslida, madaniy meros turizmi har bir davlatda, qit'ada, mintaqalarda turli xil ko'rinishga ega bo'lishi mumkinligini G'arb davlatlari tan olmasligi va ularga bu teoriya umuman yoqmasligi ma'lum bo'ldi. Shunday natijalarni ko'rgan olim yana bir tadqiqot o'tkazib uni bartaraf qilishni xohladi va buni uddasidan chiqdi. Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiya 1979-yilda ishlab chiqildi. U o'zining tadqiqot natijalarida bu Konvensiya davlatlarning bir-biriga bo'lgan munosabatiga ijobiy ta'sir o'tkazganligini ta'kidlab ketdi.²

Olib borilgan tadqiqotlardan birida ma'lumotlarni tahlil qilish maqsadida ijtimoiy fanlar uchun statistik paket (SPSS) 20 versiyasidan foydalanilgan. Gipoteza 95% ishonch darajasida sinovdan o'tkazildi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, marketing strategiyalari G'arbiy Keniyadagi madaniy meros turizmining ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilagan. G'arbiy Keniyadagi Madaniy meros obyektlarida marketing strategiyalaridan to'liq foydalanilmagan. Potensial sayyohlarni jalb qilish uchun an'anaviy marketing strategiyalari noan'anaviy marketing strategiyalariga qaraganda tez-tez ishlatilgan. Tadqiqot G'arbiy Keniyadagi Madaniy meros obyektlarini mahalliy va global miqyosda yanada raqobatbardosh qilish uchun potensial sayyohlarni jalb qilish uchun an'anaviy va noan'anaviy marketing strategiyalarini qo'llashni tavsiya qildi. Madaniy meros obyektlarini yanada jozibador va raqobatbardosh qilish uchun rebrending va yangilanishi kerak. Keniya turizm kengashi boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda madaniy meros turizmni faol ravishda bozorga chiqarishi kerak degan takliflarini bildirib o'tgan.³

¹ Adabiyotlar ro'yxatida birinchi

² Elizabet Tomaz (128-143) "Madaniy barqarorlik, turizm va rivojlanish"

³ Carbone, M. (2005) "Rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror turizm: qashshoqlikni yumshatish, birgalikda rejalashtirish va axloqiy masalalar"

Tadqiqot metodologiyasi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi madaniy turizm va meros rivojlangan mamlakatlardan kam ahamiyatga ega bo'lsa-da, bugungi kunda ishlatiladigan madaniy meros qoidalari G'arb davlatlari madaniy holatiga moslab ishlab chiqilganini ko'rishimiz mumkin. Madaniy meros turizmi global hodisa bo'lib, amalda ko'p yillar davomida ziyorat shaklida bo'lib kelgan, ammo turizm adabiyotlarida keltirilishicha, g'arbliliklar va ularning mehmonlari o'rtasidagi bir-birini yo'qlab borib kelishlar ham turizmni anglatganini bildirib ketishgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda meros resurslarining ko'pligi va o'ziga xosligiga qaramay, bu yerda qo'llaniladigan madaniy meros turizmi doirasi hozirgi vaqtgacha G'arbiy davlatlar madaniyati ta'siri ostida qolib ketganligi ma'lum bo'ldi. Hatto YUNESKO ning Jahon merosi dasturi asosan G'arb nuqtayi nazaridan ishlab chiqilgan. Masalan, Jahon madaniy merosi tushunchasi Yevropaga 1931-yilda kirib kelgan, undan keyin esa, 1964-yilda Tunis, Meksika va Peru kabi davlatlarda va nihoyat butun dunyo bo'ylab 80 davlatga kirib borganligi keltirilgan. Butunjahon merosi to'g'risidagi Konvensiya 1979-yilda ishlab chiqildi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda madaniy merosga oid adabiyotlarning aksariyati g'arbliliklar tomonidan yozilgan bo'lib, ular ko'pincha noxolis va noto'g'ri talqin qilib kelishgan. G'arb mualliflari ko'pincha "Sharq" va "Janub"ni ibtidoiy jamoada yashab kelayotgan va bizdan ancha uzoqda joylashgan mamlakatlar deb ta'riflaydilar va yuzaga keladigan har qanday o'zgarish salbiy hisoblanadi. Ilmiy ishlarda tarafkashlik har doim bo'lgan va bu madaniy meros haqida yozilgan ilmiy ishlarni ham chetlab o'tmadi.

1. Buning uchun har bir rivojlanayotgan mamlakat o'z tarixi, madaniyati, geografiyasi, dinlari, siyosati, iqtisodiyoti va albatta, madaniy merosi va turizmga ega bo'lganligi sababli va ular bir-biridan keskin farq qilganligi uchun alohida rivojlanish tendensiyasini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Ayniqsa, bu madaniyat, arxitektura, tarix, geografik sharoitlarni o'zida mujassamlashtirgan madaniy turizmga taalluqlidir. Global miqyosda rivojlanish konsepsiyalari ishlab chiqilayotganda aynan shu jihatlarga alohida e'tibor berish lozim.

2. Madaniy turizmni umumiy holatini o'rganishda qashshoq mintaqalarda madaniy merosni saqlash va rivojlanmagan mamlakatlarda madaniy turizmni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi asosiy masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Ya'ni bunda aholining aksariyati omon qilish uchun kurashayotgan mamlakatlar va mintaqalarda merosni saqlashga ustuvor ahamiyat beriladi. Bu, ayniqsa, Afrika, Lotin Amerikasi va Osiyoning ayrim qismlarida yaqqol namoyon bo'ladi, bu yerda aholi jon boshiga past daromadlar va boshqa rivojlanish ko'rsatkichlari turizmning past darajalariga va tabiatni muhofaza qilish harakatlarining yetishmasligiga mos keladi.

3. Hozirda nomoddiy madaniy merosga nisbatan umumiy tushuncha va e'tibor yetishmasligi mavjud. "Nomoddiy madaniy meros" tushunchasi xalqlarning urf-odatlarini, o'ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko'nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog'liq jihozlar, predmetlar, artefakt (obyekt)lar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o'z navbatida hamjamiyatlar, guruhlar, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o'z tarixiga bog'liq holda yaratiladi va bu ularda o'ziga xoslikni, vorislik tuyg'usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga ko'maklashadi.

Bizning O'zbekistonimiz ham madaniy turizm resurslarining keng doirasiga ega mamlakatlar qatoriga kiradi. Buni biz YUNESKO madaniy merosiga kirgan tarixiy artefaktlardan bilib olishimiz ham mumkin. Eng mashhur madaniy diqqatga sazovor joylarga quyidagilar kiradi:

Arxeologik yodgorliklar: O'zbekistonda Markaziy Osiyodagi eng muhim arxeologik yodgorliklar, jumladan, Samarqand, Buxoro va Xiva joylashgan. Bu shaharlar bir vaqtlar Ipak yo'lining muhim markazlari bo'lib, ularda ko'plab tarixiy obidalar, jumladan, masjid, madrasa va maqbaralar joylashgan.

Tarixiy obidalar: O'zbekiston uzoq va boy tarixga ega va uning tarixiy obidalari buni aks ettiradi. Eng mashhur tarixiy obidalar qatoriga Samarqanddagi Registon, Buxorodagi Labi-hovuz majmuasi, Xivadagi Ichan qal'a kiradi.

Muzeylar: O'zbekistonda o'zining boy madaniy merosini namoyish qiluvchi bir qancha muzeylar mavjud. Eng mashhur muzeylar qatoriga Toshkentdagi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Samarqanddagi Afrosiyob muzeyi va Buxorodagi "Buxoro Arki" muzeyi kiradi.

An'anaviy san'at va hunarmandchilik: O'zbekistonda yuqori sifatli badiiy hunarmandchilik mahsulotlari yetishtirishning qadimdan an'anasi bor. An'anaviy san'at va hunarmandchilikning eng mashhur

turlari orasida ipak to'qish, kulolchilik va yog'och o'ymakorligi mavjud. O'zbekistonga tashrif buyuruvchilar an'anaviy san'at va hunarmandchilik buyumlarini butun mamlakat bo'ylab bozorlar va suvenir do'konlarida xarid qilishlari mumkin.

Mamlakatimizda bo'lgan kabi, Turkiyada ham juda ko'p madaniy turizm manbalari mavjud. Eng mashhur madaniy diqqatga sazovor joylarga quyidagilar kiritilgan:

Arxeologik yodgorliklar: Turkiya dunyodagi eng muhim arxeologik yodgorliklar, jumladan, G'öbekli Tepa, Chatalhöyük, Efes va Troyaga mezbonlik qiladi.

Tarixiy obidalar: Turkiya uzoq va boy tarixga ega va uning tarixiy obidalari buni aks ettiradi. Eng mashhur tarixiy obidalar qatoriga Ayasofiya, Moviy masjid va Topkapi saroyi kiradi.

Muzeylar: Turkiyada bir qancha jahon darajasidagi muzeylar, jumladan, Istanbul arxeologiya muzeylari, Turk va islom san'ati muzeyi va Pera muzeyi mavjud.

San'at galereyalari: Turkiya jonli san'at sahnasiga ega va uning san'at galereyalari turk va xalqaro rassomlarning asarlarini namoyish etadi.

Natijalar. Ikki qardosh mamlakatlar hududida madaniy turizm resurslarining ko'pligi sohani rivojlanishiga asosiy sabab bo'ldi. Shuning uchun so'nggi bir necha o'n yilliklarda madaniy turizmning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu o'sish bir qator omillarga bog'liq bo'ldi, jumladan:

Mamlakatlarning madaniy merosi haqida xabardorlikning oshishi: Madaniy meros haqida ham mamlakat ichida, ham xalqaro miqyosda xabardorlik darajasi oshdi. Bunga qisman O'zbekiston va Turkiya hukumati va turizm sanoatining O'zbekiston hamda Turkiyaning madaniy diqqatga sazovor joylarini targ'ib qilish borasidagi sa'y-harakatlari sabab bo'ldi.

Bunga misol qilib Xalqaro Turksoy tashkilotini olish mumkin. TURKSOY [turkiy](#) davlatlardan tashkil topgan xalqaro madaniyat tashkiloti. Tashkilotning asosiy maqsadi bu turkiy davlatlar va xalqlar orasidagi do'stlikni, hamkorlikni va madaniy aloqalarni kuchaytirishdir. Bu hamkorlik iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarni o'z ichiga oladi. Tashkilot bosh binosi [Turkiya](#) poytaxti [Anqarada](#) joylashgan.

Turksoy har yili Turk dunyosidan bir shaharni "Turk dunyosi madaniyat poytaxti" etib tanlaydi. Tanlangan shahar turkiy madaniyatni nishonlash uchun bir qancha tadbirlarga mezbonlik qiladi. 2020-yilda Xiva shahri Turk dunyosi madaniyat poytaxti deb e'lon qilingan.

Yaxshilangan infratuzilma: O'zbekiston hukumati hamda Turkiya hukumatlari mamlakat infratuzilmasini yaxshilashga katta miqdorda sarmoya kiritib, sayyohlarning mamlakat bo'ylab sayohatini osonlashtirdi. Bu sayyohlar uchun asosiy turistik hududlardan tashqarida joylashgan madaniy diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurishni osonlashtirdi.

Bunga misol sifatida Samarqand viloyatini olish mumkin. Turizm markazi sifatida bunyod etilgan "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazi yiliga 2 mln turistga xizmat ko'rsatishi mumkin.

Majmua qurilishi 2019-yili Samarqand tumanidagi eshkan eshish kanali bo'yida, 212 gektar maydonda boshlandi. Markaz ichida "Congress Hall", "Boqiy shahar" majmuasi, amfiteatr va ko'plab boshqa inshootlar bor.

Shu jumladan, dunyoning yetakchi mehmonxonalari ro'yxatiga kiritilgan 22 qavatli "Samarqand Regency Amir Temur" va yana yettita mehmonxona kiradi.

Yangi turizm markazi kelgusi yillarda Samarqandga keladigan xorijiy sayyohlar sonini 1,5 mlndan oshirishda muhim o'rin tutadi. Kelgusi besh yilda keladigan sayyohlar sonini hozirgi 2 mlndan 9 mlnga yetkazish maqsad qilingan. Eng muhimi, turizm sohasida mehnat qilayotganlar soni 500 mingdan oshadi.

Ixtiyoriy daromadning oshishi: Dunyoning ko'plab mamlakatlarida ixtiyoriy daromadning o'sishi kuzatildi. Bu sayohat va dam olish tadbirlariga, jumladan, madaniy turizmga talabning oshishiga olib keldi.

Natija va muhokama. 2 mamlakat hududida madaniy turizm o'sib borayotganiga qaramay, hal qilinishi kerak bo'lgan qator muammolar mavjud. Bu qiyinchiliklarga quyidagilar kiradi:

Madaniy merosni asrash: O'zbekistonda juda ko'p madaniy meros mavjud, ammo ularning aksariyati asrab-avaylashga muhtoj. O'zbekiston hukumati bu muammoni hal qilish ustida ishlamoqda, biroq bu murakkab va qimmat ish.

Mavsumiylik: O'zbekistonda madaniy turizm mavsumiy xarakterga ega bo'lib, ko'pchilik turistlar bahor va kuz oylarida tashrif buyurishadi. Bu eng yuqori mavsumda mashhur madaniy diqqatga sazovor joylarning to'lib ketishiga olib kelishi mumkin.

Turkiya davlatida ham madaniy turizm juda ham mavsumiy bo'lib, ko'pchilik sayyohlar yoz oylarida tashrif buyurishadi. Bu eng yuqori

mavsumda mashhur madaniy diqqatga sazovor joylarning to'lib ketishiga va narx qimmatlashib ketishiga olib keladi.

Ogohlikning yo'qligi: Ko'pchilik sayyohlar O'zbekiston va Turkiya hududlari taqdim etayotgan madaniy diqqatga sazovor joylarning to'liq to'plamidan bexabar. O'zbekiston va Turkiya hukumati va turizm sanoati O'zbekistonning madaniy merosini sayyohlarga targ'ib qilish uchun ko'proq harakat qilishi kerak.

Bunday qiyinchiliklarga qaramay, O'zbekiston va Turkiyada madaniy turizmni rivojlantirish uchun ham qator imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlarga quyidagilar kiradi:

– Yangi madaniy mahsulotlarni ishlab chiqish: sayyohlar uchun yangi madaniy mahsulotlar va tajribalarni ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Bu yangi madaniy sayohatlarni rivojlantirish, yangi madaniy festivallarni yaratish va yangi muzeylar va san'at galereyalarini ochishni o'z ichiga olishi mumkin.

– Madaniy turizmni yangi bozorlarga olib chiqish: Mamlakat madaniy turizmini Xitoy, Hindiston va Janubiy Amerika kabi yangi bozorlarga olib chiqish imkoniyati mavjud. Bu bozorlar tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda va ular o'zbek hamda turk madaniy turizmi sohasida o'sish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://www.researchgate.net/publication/373443774_Organizational_Resilience_in_Hospitality_and_Tourism
2. АА Юсупов. Эффективное использование человеческих ресурсов на субъектах малого предпринимательства, 2023. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=5480308594413578526&btnI=1&hl=ru>
3. Шохрузбек Равшан ўғли Рузиев, Ҳамиджон Якубович Расулов, Аббосхон Алиевич Юсупов. Оценка туристического потенциала туризма Республики Узбекистан, 2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-turisticheskogo-potensiala-turizma-respubliki-uzbekistan>

– Barqaror madaniy turizmni rivojlantirish: hududlarda barqaror madaniy turizmni rivojlantirish imkoniyati mavjud. Bu ekologik toza va mahalliy hamjamiyatlarga foyda keltiradigan yangi madaniy mahsulotlar va tajribalarni ishlab chiqishni o'z ichiga olishi kerakligi ilmiy tadqiqotlarda samarali ekanligi keltirilib o'tilgan.

Xulosa va takliflar. Madaniy turizm O'zbekistonda turizm sanoatining rivojlanib borayotgan tarmog'i bo'lib, u mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Bu borada hal qilinishi kerak bo'lgan qator vazifalar mavjud, ammo O'zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirish uchun ham qator imkoniyatlar mavjud. Yangi madaniy mahsulotlar va tajribalarni ishlab chiqish, madaniy turizmni yangi bozorlarga olib chiqish va barqaror madaniy turizmni rivojlantirish orqali O'zbekiston yetakchi madaniy turizm yo'nalishi sifatidagi mavqeyini yanada mustahkamlashi mumkin. O'zbekiston hukumati va turizm sohasi mamlakatda madaniy turizmni yanada rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishi mumkin. Madaniy merosni saqlashga investitsiya kiritish orqali mamlakat yanada rivojlanib dunyo bozorida reytingini ko'tarib olish ehtimoli juda yuqori.

4. Carbone, M. (2005) Sustainable tourism in developing countries: poverty alleviation, participatory planning, and ethical issues. *The European Journal of Development Research*, 17(3): 559–65.
5. Cole, S. (2006) Information and empowerment: the keys to achieving sustainable tourism. *Journal of Sustainable Tourism*, 14(6): 629–44.
6. oecd.org/cfe/tourism
7. oecd.org/turkiye/
8. uzbektourism.uz/
9. www.ktb.gov.tr/?_Dil=2



GIDROENERGETIKA “YASHIL IQTISODIYOT” VA IQTISODIY O‘SHISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

X.I. Isroilov

Farg‘ona politexnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrası assistenti

150100, Farg‘ona shahar, Farg‘ona ko‘chasi 86-uy

E-mail: khusanboyisroilov@gmail.com

Tel: +99891-111-89-19

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-sentabr 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-sentabr 2023-yil

Jurnal soni: 8

Maqola raqami: 18

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.810>

KALIT SO‘ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

yashil iqtisodiyot, yashil energiya, gidroenergetika, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya manbalari, jahon iqtisodiyoti, iqtisodiy rivojlanish.

ANNOTATSIYA

Ko‘plab ekspertlar, xalqaro tashkilotlar va ilmiy jamoatchilik qayta tiklanuvchi energiya manbalarini global muammolarni hal etishning kaliti va insoniyatning barqaror rivojlanishiga o‘tish katalizatori, deb hisoblaydi. Ishning maqsadi – “yashil” energiya sifatida gidroelektro stansiyalarni shakllanishi va ommalashishi jarayonini tahlil qilish, uning hozirgi holati, istiqbollari va milliy iqtisodiyotlar va jahon iqtisodiyoti uchun ahamiyatini baholash. Milliy miqyosda “yashil” energiyaning rivojlanish darajasini tavsiflovchi miqdoriy ma’lumotlar keltirilgan, sabab-oqibat munosabatlari o‘rganilgan, qayta tiklanadigan energiyaning hozirgi holati va istiqbollari to‘g‘risida xulosalar ishlab chiqilgan.

Kirish. Aholi sonining o‘shishi va insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi bilan energiyaga bo‘lgan ehtiyoj barqaror o‘shib bormoqda. 1800-yilda insoniyat yiliga 5600 TVt/soat energiya iste‘mol qilgan. Atigi 200 yil ichida bu ko‘rsatkich o‘ttiz barobardan ko‘proq oshdi va 170 ming TVt/soatdan oshdi. 2019-yil holatiga ko‘ra, mintaqaga qarab, aholi jon boshiga energiya iste‘moli yiliga 98 dan 105 540 kVt/soatgacha o‘zgarib turadi va o‘shishda davom etmoqda¹.

Elektr energiyasi iste‘molining o‘shishi muqarrar va iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liqdir. Aholining o‘rtacha o‘shish sur‘atlari va energiyaga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olgan holda, hozirgi vaqtda birlamchi energiya iste‘molining 86% gacha bo‘lgan uglevodorodlar va boshqa an’anaviy manbalar bir necha o‘n yil ichida tugashi mumkin. Energiya manbalarining cheklangan va tugaydigan tabiati muqobil yechimlarga ehtiyoj tug‘diradi. Ulardan biri “yashil” energiya.

“Yashil” energiya – energiya ishlab chiqaruvchi tizimning bir qismi bo‘lib, uning asosini inson miqyosida tugamaydigan yoki qayta tiklanadigan tabiiy resurslar tashkil etadi. “Yashil” energiya manbalariga shamol, quyosh nuri, suv oqimlari, geyzerlar va biyoqilg‘i kiradi. Bunday energiya manbalarining cheksizligidan tashqari, ularning ekologik tozaligi hamdir. Yashil energiya global megatrendlar – urbanizatsiya va iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini yumshatishga yordam beradi, deb taxmin qilinadi.

Barqaror rivojlanish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalariga bosqichma-bosqich o‘tishni o‘z ichiga olgan “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi 1991-yilda ingliz iqtisodchisi Maykl Jeykobs tomonidan ishlab chiqilgan. Muallif uning asosiy qoidalarini “Yashil iqtisodiyot: atrof-muhit, barqaror rivojlanish va kelajak siyosati” (“Yashil iqtisodiyot”) kitobida bayon qilgan.

2008-yildagi iqtisodiy inqiroz, “yashil” iqtisodiyot jahon iqtisodiyotini tiklash va kelajakda katta zarbalarning oldini olishning operatsion strategiyasi sifatida ko‘rib chiqila boshlandi. Shundan so‘ng “yashil” iqtisodiyot va “yashil” energiya masalalari xalqaro ahamiyatga ega bo‘ldi va BMT darajasida muhokama qilina boshladi. “Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturida (UNEP) mustahkamlangan va “ekologik xavflar va atrof-muhit tanqisligini sezilarli darajada kamaytiradigan holda inson farovonligi va ijtimoiy adolatni oshirish” usuli sifatida tan olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qayta tiklanadigan energiya resurslarini ahamiyati juda ko‘p olimlar tomonidan o‘rganilgan va e’tirof etilgan. Bunga asosiy sabab shuki, suv resurslarining dunyoning deyarli barcha hududlarida elektr energiyasi manbasi sifatida foydalanish imkoniyatlari mavjud. Quyosh, shamol, gidravlik, biomassa, okean va geotermal kabi qayta tiklanadigan energiya turlarining elektr energiyasini ishlab chiqarish va qayta tiklanadigan

energiyaning rivojlanish potensialini Bouraioe, Kuang va Ostegard kabi olimlar bir necha bor tadqiq etishgan.

Ba’zi tadqiqotlar qayta tiklanadigan energiya iste‘moli iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Ushbu yangilik qayta tiklanadigan energiya iste‘moli boshqa energiya iste‘molini to‘liq almashirishi va iqtisodiy o‘shishga yordam berishi mumkinligi bilan tasdiqlandi.

Misol uchun, Lin va Moubarak Xitoyning iqtisodiy o‘shishi qayta tiklanadigan energiya sanoatidan foyda olishini ta’kidladilar. Marinas va boshqalar qayta tiklanadigan energiya iste‘moli va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi uzoq muddatli ikki tomonlama bog‘liqlikni yoritishdi va qayta tiklanadigan energiya iste‘moli iqtisodiy o‘shishni kuchaytirishi mumkinligini aniqlashdi.

Shafiei va Salim, Bhattachari, Paramati, Rahman va Velayutham qayta tiklanadigan energiya iste‘moli iqtisodiy faoliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidladilar. Lnglesi-Lotzning ta’kidlashicha, qayta tiklanadigan energiya iste‘moli intensivligini oshirish atrof-muhit ifloslanishini hal qiladi va iqtisodiy o‘shish darajasini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda iqtisodiy o‘shishning energetika sanoati negizida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va fan-texnika taraqqiyoti ta’sirida o‘zgarishiga qaratilgan taraqqiyotning asosiy moddiy ishlab chiqarishning o‘zi emas, balki unga zaruriy sharoitlar yaratuvchi xizmatlar birgalikda tashkil etadi.

Bu esa energetika tizimini barqaror shart – sharoitlarda yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi. Ushbu tadqiqotdan ko‘zlagan maqsad murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida milliy iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan energetika sanoatini hozirgi ekologik talablarga mos ravishda takomillashtirish va sanoat korxonalar o‘rtasida ushbu tizimni samarali joriy etishning amaliyoti va unda mavjud muammolar sabablarini tahlil qilish hisoblanadi.

Milliy energetika tizimini mavjud potentsiali holatini baholash va yuqori texnologik jarayonlarni amalga oshirishda kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir necha quyidagi vazifalar qo‘yiladi:


- Energiya olish va uzatish jarayonlarini amalga oshirish va uni takomillashtirishning dunyodagi yetakchi mamlakatlari tajribasini o‘rganish va mamlakatimiz potentsialiga mos tomonlarini o‘zlashtirish;
- neoindustrial rivojlanishning ekologik sof energiya ishlab chiqarish bo‘yicha xalqaro tajribasining aniqlangan o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mahalliy iqtisodiyotni o‘zgartirishning joriy tendensiyalari va istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash.
- energetika sanoatini innovatsion rivojlantirishga va ishlab chiqarishni sifat va son jihatdan yaxshilashga xizmat qiluvchi omillarni o‘rganish va o‘zlashtirish

¹ Energy Production and Consumption (statistics) // Our World in Data. URL: <https://ourworldindata.org/energy-production-consumption>

Tadqiqotda omilli, tarixiy, statistik, qiyosiy va tizimli tahlil usullari, ekspert baholash usuli qo'llanildi, bu esa muallifga qo'yilgan vazifalarni hal etish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. An'anaviy energiyani qayta tiklanadigan energiya bilan solishtirganda ilgari keng qo'llanilganligi sababli, qazilma energiya odamlarning ehtiyojlarini yaxshiroq to'ldiradi.

Qayta tiklanadigan energiya iste'molining kengayishi bilan qazilma energiya iste'moli ulushi kamaydi. Agar qazilma energiya iste'moli ulushi ma'lum darajaga kamaytirilsa, hozirgi vaqtda qayta tiklanadigan energiya ifloslanish emissiyasini kamaytirishi mumkin bo'ladi va uning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri kuzatilmasligi mumkin va shu bilan yashil iqtisodiy rivojlanish jarayoni ham davom etadi.



1-rasm. Jahon energiya resurslari ulushlari (1800–2022-yillar)

XVIII asr boshlarida faqatgina yog'och asosiy energiya manbasi bo'lgan bo'lsa, asr so'ngida ko'mir qo'shimcha manba sifatida ko'rila boshladi. XIX asr boshlarida ishlatila boshlagan neft van neft mahsulotlari esa asr o'rtalariga kelib yetakchilikni qo'lga oldi va hanuzgacha eng keng qo'llaniladigan energiya resursi bo'lib qolmoqda.

O'tgan asrning 1900-yillarida tabiiy gaz va gidrostansiyalar iste'molga kirgan bo'lsa, AESlardan energiya olish 60-yillardan rivojlanib boshladi va tobora rivojlanib bormoqda.

Hozirgi zamonda ham neft asosiy energiya manbasi sifatida yiliga 50 000 terrawatt/soat dan yuqoriroq ko'rsatkichni ko'rsatayotgan bo'lsa, ko'mir ayni ko'rsatkich bo'yicha 45 000 terrawatt/soatni ko'rsatdi. 10 000 terrawatt/soat bilan suvdan olinadigan elektr manbasi esa qayta tiklanmaydigan resurslardan ancha ortda qolmoqda.

Mamlakatimizda ham aynan shu xususda bir qancha katta ko'lamlari chora-tadbirlar ko'rilmog'ida va davlat dasturlariga kiritilmog'ida.

Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralarini ko'rilishi ta'kidlangan.

2023-yil 19-sentabr kuni Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasining umumiyosiy munozaralari davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutqida O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o'zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va "yashil" energetika ulushini keskin oshirish strategik vazifa bo'lib qolishi ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2030-yilgacha O'zbekiston respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida qarorida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish va sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish kabi masalalar ko'rilgan²

Gidroenergetika afzalliklariga quyidagilar kiradi: Gidroenergetika qayta tiklanadigan energiya manbasi hisoblanadi. Gidroenergetika orqali ishlab chiqariladigan energiya quyosh tomonidan boshqariladigan suv aylanishiga tayanadi va uni qayta tiklanishi tayanadi.

Gidroenergetika ichki energiya manbasi bo'lib, har bir davlatga xalqaro yoqilg'i manbalariga qaram bo'lmagan holda o'z energiyasini ishlab chiqarish imkonini beradi.

To'plangan gidroenergetika baliq ovlash, suzish va qayida sayr qilish kabi dam olish imkoniyatlarini taklif qiluvchi suv omborlarini yaratadi. Aksariyat gidroenergetika inshootlari aholining ushbu imkoniyatlardan foydalanishiga imkon berish uchun suv omboriga ba'zi aholi kirishini ta'minlashi kerak.

Gidroeletk energiyasi moslashuvchan. Ba'zi gidroenergetika inshootlari tezda nol quvvatdan maksimal ishlab chiqarishga o'tishi mumkin. Gidroeletkrostantsiyalar tarmoqqa zudlik bilan elektr energiyasini ishlab chiqarishi mumkinligi sababli, ular elektr energiyasining katta uzilishlari yoki uzilishlari paytida zaruriy zarira quvvatni ta'minlaydi.

Gidroenergetika suv toshqinlarini nazorat qilish, sug'orishni qo'llab-quvvatlash va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash orqali elektr energiyasi ishlab chiqarishdan tashqari foyda keltiradi.

Gidroenergetika arzon. Gidroenergetika boshqa energiya manbalariga nisbatan arzon elektr energiyasi va vaqt o'tishi bilan mustahkamlikni ta'minlaydi. Qurilish xarajatlarini hatto ko'priklar, tunnellar va to'g'onlar kabi oldindan mavjud tuzilmalardan foydalanish orqali kamaytirish mumkin.

Gidroenergetika boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalari birga ishlatilishi mumkin. Pumped storage hydropower (PSH) kabi texnologiyalar energiyani talab yuqori bo'lganda shamol va quyosh energiyasi kabi qayta tiklanadigan manbalar bilan birgalikda ishlatish uchun ham juda qulay.

Gidroenergetika qishloq joylarida ish o'rinlarini yaratadi va mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantiradi³.

Afzalliklaridan tashqari bu sohadagi imkoniyatlar ham qolganlariga nisbatan sezilarli darajada ustunroq.

² <https://lex.uz/docs/-6303230>

³ <https://www.energy.gov/eere/water/benefits-hydropower>

Hududiy gidroenergiya potentsiali

	Yalpi nazariy Gidroenergetika quvvati (TWh/yil)	Texnik jihatdan foydalanish mumkin Gidroenergetika quvvati (TWh/yil)
Osiyo	16,618	5590
Yevropa	4919	2762
Shimoliy Amerika	5511	2416
Janubiy Amerika	7541	2843
Afrika	3909	1834
Okeaniya	654	233
O'rta sharq	690	277
Umumiy:	39,842	15,955

1-jadvalda dunyoning barcha asosiy mintaqalari uchun yalpi nazariy gidroenergetika quvvati ko'rsatkichlari keltirilgan. Osiyo eng katta salohiyatga ega, yiliga 16 618 TVt/soat, Janubiy Amerika 7541 TVt/soat, Shimoliy Amerika 5511 TVt/soat, Yevropa 4419 TVt/soat va Afrika 3909 TVt/yil. Yaqin Sharq (690 TVt/soat) va Okeaniyada (yiliga 654 TVt/soat) potentsial ancha cheklangan.

Ushbu yalpi quvvatni hech qachon to'liq amalga oshirib bo'lmaydi, chunki bunga texnik, iqtisodiy va ekologik to'siqlar mavjud. Ikkinchi o'lchov ya'ni texnik jihatdan foydalanish mumkin bo'lgan gidroenergetika quvvati, oxir-oqibat ishlatilishi mumkin bo'lgan miqdorni aniqroq ko'rsatish imkonini beradi. Bu hozirda mavjud texnologiyalar yordamida foydalanish mumkin bo'lgan imkoniyatlarning o'lchovidir. Mintaqaviy texnik jihatdan foydalaniladigan gidroenergetika quvvatlari ham 1-jadvalda keltirilgan. Bular yalpi nazariy imkoniyatlardan sezilarli darajada kichikdir. Osiyo bo'ylab texnik jihatdan foydalanish mumkin bo'lgan quvvat yiliga 5590 TVt / soatni tashkil etadi, bu yalpi nazariy quvvatning 34% ni tashkil qiladi. Boshqa mintaqalardagi texnik imkoniyatlar ham yalpi quvvatga nisbatan ancha past.

Tabiatga ta'siri: Gidroelektrostansiyalarning yana bir muhim jihati shundaki, gidroenergetika loyihasing atrof-muhitga ta'siri, xususan, to'g'on va suv ombori bilan bog'liq loyihaning atrof-muhitga ta'siri va loyiha ko'rib chiqilayotganda hisobga olinishi kerak. Suv ombori yaratilganda nima suv ostida qoladi? To'g'on yoki to'siq daryodagi cho'kindi oqimiga qanday ta'sir qiladi? Issiqxona gazlarining oqibatlariga qanday? Kimning manfaatlariga ta'sir qiladi? Daryo oqimi sxemasi uchun buzilish darajasi pastroq bo'lishi mumkin, ammo atrof-muhit bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar hali ham talab qilinadi. Kichik gidroenergetika sxemalari yirik gidroenergetika loyihalari bilan bir xil miqyosda kamdan-kam hollarda buziladi va ularning ta'siri odatda geografik jihatdan cheklangan, shuning uchun qarorlar ko'pincha milliy darajada emas, balki mahalliy darajada qabul qilinishi mumkin. Katta sxemalar mintaqalarga ta'sir ko'rsatish potentsialiga ega va mintaqaviy yoki milliy darajada yanada ehtiyotkorlik bilan tekshirishni talab qiladi.

Bu muammo yangi emas. Insoniyat uzoq vaqt davomida suv yo'llarini o'zgartirmoqda, kamida ikki ming yillik va ba'zi dastlabki tuzilmalar hali ham mavjud. Rimliklar tomonidan qurilgan to'g'onlarni bugungi kunda Ispaniyada ishlatish mumkin. Ilgari to'g'onlar ichimlik va sug'orish uchun suv bilan ta'minlash hamda suv yo'llarini nazorat qilish uchun foydalanilgan. Faqat 19-asrning oxiridan boshlab elektr energiyasini ishlab chiqarish ushbu foydalanish ro'yxatiga qo'shildi.

To'g'onlar doimo atrof-muhitni o'zgartirsa ham, o'tmishda amalga oshirilgan o'zgarishlar, odatda, ijobiy deb baholandi jabrlanganlarning turmush darajasi va sharoitlarini yaxshilash. Atrof-muhitga e'tiborning kuchayishi va ba'zi beparvo o'zgarishlar 20-asrning oxiriga kelib tushunchalarning o'zgarishiga olib keldi va shundan beri yirik gidroenergetika sxemalarini ilgari surish va qurish ancha qiyinlashdi. Bu WCD tomonidan gidroenergetika loyihasi yaxshi va yomon ta'sirlarini ko'rib chiqishga undadi.

Bugungi kunda yirik gidroenergetika loyihasi amalga oshirish uchun odatda atrof-muhitni to'liq baholash kerak bo'ladi va aksariyat hollarda bu majburiy bo'ladi. Loyihaning ta'siri, shu jumladan har qanday zarur ko'chirish hajmi, biologik xilma-xillikka ta'siri, seysmik faollik potentsiali va loyihaning quyi oqimidagi hududlarga ta'siri baholanishi kerak.

Bunday tadqiqot rivojlanishning har qanday salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olishi kerak. Ko'pgina hollarda, xususan, xalqaro kredit agentliklari ishtirok etganda, agar ekologik baholash ijobiy bo'lmasa, loyihani davom ettirishga ruxsat

berilmaydi. Bu davlat sektori va xususiy sektor loyihalariga bir xil darajada tegishli.

Yuqorida ta'kidlanganlardan tashqari, biologik xilma-xillik uchun eng katta xavf shundaki, katta suv omborlari yo'qolib borayotgan turlarning yashash hududini yo'q qiladi. Gidroloyihalarni ishlab chiqish uzoq vaqt talab qilganligi sababli, to'g'on qurilishi bo'yicha ishlar davom etayotganda xavf ostida qolgan hudud o'rmiga yangi yashash muhitini yaratish mumkin. Bu o'simlik turlari uchun nisbatan sodda bo'lishi mumkin, ammo hayvonlar turlari uchun ancha qiyin bo'lishi yaqqol ko'rinib qoladi, biroq buni amalga oshirish mumkin. Haqiqatan ham, ba'zi eski loyihalar dastlab qurilganda hududda yashovchilarni hisobga olmagan holda konstruksiyalangan sababli hudud bioxilma-xilligiga sezilarli ta'sir o'tkazgan.

Gidroenergetika loyihalari odatda issiqxona gazlari emissiyasi eng past bo'lgan energiya ishlab chiqarish sxemalari orasida tasniflanadi. Odatda issiqxona gazlari emissiyasi shamol elektr stansiyalari kabi 10-13 kg/MVt ni tashkil qiladi. Biroq, barcha gidroenergetika sxemalari kam emitentlar emas. Ba'zilar kuchli issiqxona gazi bo'lgan metanni sezilarli darajada ishlab chiqarishi mumkin.

Metan organik moddalar suvni kislorodsizlanadigan rezervuar tubida to'planganda hosil bo'ladi. Bunday sharoitda metan gazini ajratib beradi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun loyiha ishlab chiquvchilari suv ostida qolishi mumkin bo'lgan hududdan iloji boricha ko'proq organik moddalarni olib tashlashga harakat qilishlari kerak, agar iloji bo'lsa, daraxtlarni kesish va o'simliklarni tozalash orqali suvga cho'kish sodir bo'lmaydi. Shunday bo'lsa ham, hamma narsani olib tashlash mumkin bo'lmaydi.

Texnologik, iqtisodiy, shuningdek, ekologik afzalliklari tufayli, gidroelekt energetika barqaror energiyadan foydalanadigan davlatlar bo'yicha ilgari o'tkazilgan kuzatuvlarga ko'ra, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda yaqinlashib kelayotgan global energiya muhim energiya resursi sifatida paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, ko'plab gidroenergetika manbalari, jumladan, okean energiyasi, to'lqin energiyasi va to'lqin energiyasi mavjud. Bundan tashqari, gidroenergetika markazlashdirilgan bo'lishi mumkin, chunki u mahalliy kompaniyalarda akkumulyatorlarni zaryadlash va donni maydalash kabi vazifalar uchun mustaqil ravishda ishlatilishi mumkin, bu esa mamlakatga ko'plab afzalliklarni beradi. Bangladesh, markaziy va janubiy Xitoy va shimoliy Hindiston kabi rivojlanayotgan ayrim davlatlarda yashil energiya tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nepalning ulkan gidroenergetika salohiyati tufayli mamlakat iqtisodiyoti uning gidroenergetika manbalaridan samarali foydalanishga bog'liq. Natijada, Nepal kabi davlatlar davom etayotgan elektr energiyasi tranzaksiyalari uchun Hindiston va Bangladesh bilan mustahkam energiya sotib olish shartnomalarini tuzib, yashil energiyaning eng yirik eksportchilaridan biriga aylandi.

Energiya eksportidan tushadigan daromadlar iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi va infratuzilma, uy-joy qurilishini moliyalashtiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda gidroenergetikadan foydalanish asosan suvdan energiya ishlab chiqarish uchun suvdan foydalanmasdan foydalanishi va uni o'rnatish ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan foydali ekanligi bilan izohlanadi.

Gidroelektrostansiyalarning qurilish xarajatlari katta bo'lsa-da, ularning arzon ishlashi va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari tufayli ular past zararsizlanish nuqtalariga ega. Bundan tashqari, ularning yillik o'rtacha yog'ingarchiliklari ularni boshqa yashil energiya manbalariga qaraganda ancha tejamon qiladi. Sanoat va irrigatsiya maqsadlarida foydalanishdan tashqari, u dam olish turizmining bir turiga aylantirilishi mumkin. Hozirgi vaqtda ishlatiladigan eng ekologik toza energiya

tizimlaridan biri bu mikro-gidrodur. Texnologiyaning o'ta mustahkamligi va kam xizmat ko'rsatish tufayli tizimning ishlash muddati 50 yilga yetishi mumkin. Hidroenergetika arzonroq yoqilg'i narxi, texnik samaradorlik, arzon ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari, shuningdek, atrof-muhitga ozgina ta'siri tufayli maqbul muqobil energiya manbai hisoblanadi.

Gidroelektr energiyasi kelajakda energiyaga bo'lgan talabni qondirishda muhim rol o'ynashi mumkin, ayniqsa, 2 milliard mahalliy aholi elektr energiyasidan foydalana olmaydigan rivojlanayotgan mamlakatlarda. Qishloqlarni elektrlashtirish nuqtayi nazaridan mini gidroenergetika keng o'rganilgan real yondashuvlardan biridir. Kichik gidroenergetika ixcham tuzilmasi tufayli, uni bir necha mamlakatlarda qo'llash mumkin. Kichik gidroenergetika sxemasi, uning narxi sababli uni rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ideal yechimga aylantiradi. Shuningdek, u ish o'rinlari yaratish uchun vosita bo'lib xizmat qila oladi, shuning uchun chekka hududlarda yashovchi aholining hayot sifatini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Global isish va davom etayotgan zahiralarning kamayishi natijasida bir nechta variant va barqaror energiya manbalari ishlab chiqildi. Elektr energiyasining asosiy qismi qazib olinadigan yoqilg'idan ishlab chiqariladi, bu esa kelajakda zaharli chiqindilarning asosiy manbai bo'lib qoladi; shuning uchun qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanishni qisqartirish choralarini ko'rilmogda. Barqaror energiya manbai bo'lgan gidroenergetikadan foydalanish atrof-muhitga ham, insoniyat sivilizatsiyasiga ham bir necha jihatdan foyda keltirdi. Elektr energiyasini suv bilan ta'minlanishni kamaytirmasdan gidroenergetika orqali ishlab chiqarish mumkin. Hidroelektrik inshootlardagi suv omborlari misli ko'rilmagan operatsion moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

1. Uzilishlar bilan bog'liq muammolar cheklanadi va ular talab qilinadigan quvvatdagi o'zgarishlarga darhol javob berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. " Nautiyal, H., & Goel, V. (2020). Sustainability assessment of hydropower projects. *Journal of Cleaner Production*, 265, 121661.
2. " Frey, G. W., & Linke, D. M. (2002). Hydropower as a renewable and sustainable energy resource meeting global energy challenges in a reasonable way. *Energy policy*, 30(14), 1261-1265.
3. " Kaygusuz, Kamil. (2009). The Role of Hydropower for Sustainable Energy Development. *Energy Sources. Part B*. 365-376. 10.1080/15567240701756889.
4. Evans, A., Strezov, V., Evans, T.J., 2009. Assessment of sustainability indicators for renewable energy technologies. *Renew. Sustain. Energy Rev.* 13 (5), 1082–1088.
5. Jaramillo, O a, Borja, M a, Huacuz, J.M., 2004. Using hydropower to complement wind
6. energy: a hybrid system to provide firm power. *Renew. Energy* 29, 1887. <https://doi.org/10.1016/j.renene.2004.02.010>.

Moslashuvchanligi va saqlash imkoniyatlari tufayli gidroenergetika energiyadan foydalanishning boshqa vositalariga qaraganda yaxshiroq ishlash imkonini beradi. Bundan tashqari, gidroenergetika elektr energiyasi ishlab chiqarishning 22 foizini tashkil qiladi, bu esa uning qazib olinadigan yoqilg'ilarni siqib chiqarish uchun katta salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi, chunki u G7 mamlakatlarida asosiy qayta tiklanadigan energiya manbai sifatida ikki baravar ko'payadi. Hidroenergetikani o'rnatish shaharlar uchun bir qator afzalliklarga ega, jumladan, energiya, yo'llar va sanoat rivojlanishi. Bu iqtisodiyotni rivojlantirish va turmush darajasini oshirish, jumladan, sog'liqni saqlash va ta'limdan foydalanish imkoniyatlarini oshirishi mumkin.

2. Barqaror rivojlanishning yana bir muhim vositasi gidroenergetikadir. Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Butunjahon komissiyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, gidroenergetika obyektlari iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq, ekologik jihatdan oqilona va ijtimoiy jihatdan ongli ravishda boshqariladi. Ushbu texnologiyani amalga oshirishdagi eng katta to'siq shundaki, yirik GESlar o'simliklarni keng yo'q qilish ehtimolligi mavjud. Muhim ekotizimlar vayron bo'ladi, ko'p sonli aholi quyi oqimga ko'chiriladi va boshqa halokatli oqibatlar, jumladan, toshqin va ko'chkilar sodir bo'lishi ham kutilishi mumkin. Shunga qaramay, kichik yoki mikro-gidroelektrostansiyadan foydalanish ushbu maxsus ehtiyoj yoki kamchiliklarni bartaraf etishi mumkin.

3. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning universitetlari va ilmiy markazlarida elektr energiyasi manbalari va elektr energiyasi iste'molchilari tomonidan o'tkazilayotgan va hosil bo'ladigan induktiv shovqinlarning elektr energiyasi sifatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shuni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasida elektr energiyasi sifati masalasini o'rganish va ilmiy asoslarni yaratish ustuvor masala hisoblanadi.

7. Ludin, N.A., Mustafa, N.I., Hanafiah, M.M., Ibrahim, M.A., Teridi, M.A.M., Sepeai, S., et al., 2018. Prospects of life cycle assessment of renewable energy from solar photovoltaic technologies: a review. *Renew. Sustain. Energy Rev.* 96 (NOV), 11–28.

Web sahifalar

1. *Energy Production and Consumption (statistics) // Our World in Data*. URL:<https://ourworldindata.org/energy-production-consumption>
2. <https://lex.uz/docs/-6303230>
3. <https://www.energy.gov/eere/water/benefits-hydropower>
4. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)
5. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)
6. <http://www.cbu.uz> (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki)



O'ZBEKISTONDA IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASHUVI SHAROITIDA SANOAT TARMOQLARI VA KORXONALARI KOOPERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Xomidov Mirodiljon Xasanboy o'g'li
Farg'ona politexnika instituti, tayanch doktorant
murodil.xomidov@inbox.ru,
+998911582356

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-sentabr 2023-yil
Tasdiqlandi: 26-sentabr 2023-yil
Jurnal soni: 8
Maqola raqami: 19
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.811>
KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

Yakuniy mahsulot, *eksport salohiyati*, kichik sanoat kompaniyalari, tayyor mahsulot, kooperatsiya, kichik biznes, eksport, kichik tadbirkorlik, ishlab chiqarish infratuzilmasi, venchur sarmoyasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining sanoatida tarmoqlararo va korxonalar kooperatsiyasini joriy etishning ahamiyati hamda uni iqtisodiyotni rivojlanishidagi o'rni, bugungi kunda jamiyat farovonligi yo'li yoritilgan. Undan tashqari amaliy yondashuvlar innovatsion jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqish darajasi ko'rib chiqilgan. Sanoatlashuvda iqtisodiyotning xalqaro va milliy miqyosda turli yondashuvlari amaliyotda qay tarzda namoyon bo'lishi hamda mamlakatimizda ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora tadbirlari o'rganilgan. Shuningdek, yurtimizda iqtisodiyotning sanoat sektorini rivojlantirishda sanoat korxonalarini kooperatsiyasining dolzarbligi, va xorijiy tajribalar asosida kooperatsiya faoliyatini olib borish usulining afzalligi yoritilgan.

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar natijasida aholimiz hayot tarzi yaxshilanib borayotganligini e'tirof etish zarur. Iqtisodiy siyosat keng ko'lamli iqtisodiy-ijtimoiy dasturlarning hayotga tatbiq etilishi bilan sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun zamin yaratmoqda. Xususan, sanoat sohasi ham mamlakatimizda mustaqillik yillarida chinakam rivojlanish bosqichiga olib kelindi. Ushbu tarmoq bugungi kunda yuqori texnologiyali sanoatga aylandi. Buning natijasida aholini sifatli iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash yildan yilga ortib, aholimizning oziq-ovqat manbayi bo'lib xizmat qilmoqda.

Hozirda iqtisodiyotni transformatsiyalashuvi yuz berayotgan bir paytda xo'jalik yuritish tizimida ko'plab davlatlar yangicha mexanizmlardan foydalanishni boshlab yuborishgani sir emas. Buning natijasida texnologiyalardan samarali foydalanish, mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, mavjud ishlab chiqarish va texnologik quvvatlardan oqilona foydalanishning yangicha ko'rinishlari maydonga kelmoqda yoki avvalgilari takomillashmoqda. Kundan kunga taraqqiyot darajasining dinamikasi shuni ko'rsatib berdiki, biror bir xo'jalik yuritish subyektini mustaqil rivojlanishidan ko'ra bir necha yondosh subyektlar bilan mustanosib aloqa o'tatish mustahkam iqtisodiy o'sish garovi bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Sanoatda innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan innovatsion tizimlar, ularni mahalliy muhitdagi amal qilish qonuniyatlari va innovatsiyalarga davlat siyosatining tarmoqlarda qo'llanilishi, klasterlar yoki mintaqalararo innovatsiyalashuv darajasi mavjudligi va ichki va tashqi omillar ta'siriga qaratilgan.

Ammo, sanoat kooperatsiyalarni joriy etilishi ko'pincha yirik korxonalar darajasida sodir bo'ladigan hodisa sanaladi. Biz ushbu tadqiqotimizda innovatsion rivojlanish masalasini makroiqtisodiy darajada tahlil qildik.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va uni qayta ishlovchi korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish dunyoning ko'plab mamlakatlari va yurtimizning bir necha izlanuvchilari tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, kooperatsiyaning boshlang'ich tushunchalari va uslubiy jihatlarini xorijiy olimlardan R.Ouen, U.King, Ye.Norson, F. Rayffayzen, A. Sapiro, Ch.Fure va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.¹

Bundan tashqari sanoatda kooperatsiya nazariyasi, uning iqtisodiy-tashkiliy asoslari, ijtimoiy jihatlarini, ishlab chiqarish kooperatsiyasining konseptual asoslari MDH davlatlari olimlaridan M.N.Tugan-Baranovskiy, N.D.Kondratev, A.V.Chayanov, N.P.Makarov, I.V.Yemelyanov tomonidan tadqiq etilgan.²

Tadqiqot metodologiyasi. Bu tadqiqotdan ko'zlagan maqsadi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida milliy iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini bo'lgan sanoatda korxonalar o'rtasida kooperatsiyalarni joriy etishning amaliyoti va unda mavjud muammolar sabablarini tahlil qilish hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotni mavjud potensial holatini baholash va yuqori texnologik jarayonlarni amalga oshirishdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir necha quyidagi vazifalar qo'yiladi:


- Sanoatlashuv jarayonlarini amalga oshirish va uni takomillashtirishning dunyodagi yetakchi mamlakatlar tajribasini o'rganish va mamlakatimizda potensialiga mos tomonlarini o'zlashtirish;
- neoindustrial rivojlanishning kooperatsiyalashuv bo'yicha xalqaro tajribasining aniqlangan o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mahalliy iqtisodiyotni o'zgartirishning joriy tendensiyalari va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash.
- sanoatni innovatsion rivojlantirishga va ishlab chiqarishni sifat va son jihatdan yaxshilashga xizmat qiluvchi omillarni o'rganish va o'zlashtirish.

Tadqiqotda omilli, tarixiy, statistik, qiyosiy va tizimli tahlil usullari, ekspert baholash usuli qo'llanildi, bu esa muallifga qo'yilgan vazifalarni hal etish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama. Ilg'or taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri bu ko'plab xo'jalik subyektlarining sa'y-harakatlarini birlashtirishdir. Korxonaning barqarorligi uning o'ziga xos resurslari yig'indisi, ulardan foydalanish samaradorligi darajasi va mintaqa yoki sanoatning boshqa sanoat korxonalarini bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi uchun yaxshi sharoitlar bilan belgilanadi. Sanoatni kooperativ o'zaro ta'siri ma'lum bir korxonada ularni qayta taqsimlash tufayli ma'lum resurslarning yetishmasligini qoplaydi, bu takror ishlab chiqarish siklining uzluksizligini ta'minlaydi. Sanoat mahsulotlari kooperativ doirasida meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va iste'molchiga yetkazish bilan bog'liq iqtisodiy model quyidagi masalalarni o'z ichiga qamrab olishi lozim (1-rasm).

¹Зарождение и развитие кооперативного движения в Европе и Америке, пропагандистская и организаторская деятельность основоположников кооперации: Р. Оуэна, Ф. Райффайзена, У. Кинга. Русская школа кооперативной мысли (И.В. Емельянов, В.Ф. Тотоминанц).

²Чаянов А.В. О сельскохозяйственной кооперации / А. В. Чаянов. – Саратов: Приволж. кн. изд-во, 1989. – 176 с.; Туган-Барановский, М. И. Социально-экономическая природа кооперации / М. И. Туган-Барановский. – М.: Экономика, 1989. – С. 100–117.



1-rasm. Sanoat tarmoqlari va korxonalari o'rtasidagi kooperatsiyalar faoliyatini yo'lga qo'yishning afzallik modeli³

Yuqoridagi modeldan shuni xulosa qilish mumkinki, ishlab chiqarish kooperatsiyasi modeli faoliyati bevosita mamlakat iqtisodiyotining ko'plab yo'nalishlarda rivojlanishi va samarali harakatiga sababchi bo'ladi. Ko'rib turganingizdek bevosita ishlab chiqarish jarayonlarini kooperatsiyalashuvi iqtisodiyot tamoqlarida ishlab chiqarishni kengayish trayektoriyasini shakllantirishga sababchi boladi. Ishlab chiqarish trayektoriyasi deganda biz ma'lum tur ishlab chiqarish yo'nalishlarini shakllanishi va aniq bir mahsulot bo'yicha ixtisoslashuvni tushunishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida bir vaqtning o'zida bosh manbalarni mamlakat miqyosida turli yo'nalishlarga bura olish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari bu modelda ta'kidlangan boshqa afzal jihatlar ham talaygina.

Yuqoridagi modelga qo'shimcha ravishda sanoat tarmoqlari va korxonalari kooperatsiyaning ijtimoiy muammolari hal qilish, mamlakat aholisining yuqori ijtimoiy faolligini shakllantirish qobiliyati sanoatda tarmoqlar kooperatsiyasini boshqaruv shaklining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratadi.

Sanoatda kooperatsiyalarning xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida faoliyati ichki va tashqi omillar ta'sirida bo'lib, ularning ta'sir qilish liniyalari ko'pincha qarama-qarshi xarakterga ega. Ichki – bu kooperatsiya tarmoqlari va korxonalari faoliyati, tashqi-bozor raqobat muhiti va davlat instituti. Ushbu omillar o'z manfaatlarini ifodalaydi, ularning izchilligining yo'qligi esa kooperatsiya jarayonlarini boshqaruvda uzviyligini yuzaga keltiradi.

Boshqaruv shakli sifatida kooperatsiya samaradorligi mexanizmining tarkibiy qismlari turlicha hisoblanadi. Sanoatda kooperatsiyasining har qanday shaklining tashkiliy va iqtisodiy jarayonlari ushbu manfaatlarni muvofiqlashtirish mexanizmini yaratadigan, ishlashini ta'minlaydigan va shu bilan birga ularning samarali faoliyatini ta'minlaydigan tuzilmalarni o'z ichiga olishi kerak. Bularga davlat institutlari, raqobat muhiti, aksiyadorlar va yollangan xodimlar kiradi. Kooperativlik mexanizmi va samaradorligining iqtisodiy shakl sifatida o'zaro ta'siri 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval.

Sanoat tarmoqlari va korxonalari kooperatsiyani rivojlantirish mexanizmlarining samarali va ustunlik jihatlari

	Kooperatsiyaning funksiyalari	Kooperatsiyaning samaradorligi	Samaradorlik mezonlari
Bozor va raqobat	Xo'jalik va tadbirkorlik faoliyati	Iqtisodiy samaradorlik	Daromad, tejash, moliyaviy barqarorlik, barqarorlik, moslashish, moslashuvchanlik, sifat
Kooperatsiya ishtirokchilari	Ijtimoiy faoliyat	Ijtimoiy samaradorlik	Mehnatga munosabat, motivatsiya, ish bilan ta'minlash, manfaatlarni himoya qilish, maqsad birligi
Yollangan xodimlar	Boshqaruv	Boshqaruv samaradorligi	Demokratik boshqaruv: rejalashtirish va maqsadlarni belgilashda ta'sir darajasi, rollarning izchilligi
Davlat institutlari	Davlat siyosatiga muvofiq faoliyatni amalga oshirish	Milliy iqtisodiy samaradorlik	Ekologik toza, kooperativ boshqaruv shakli va jamiyat uchun barcha imtiyozlarning muvofiqligi

Xususan, fan-texnika taraqqiyoti yordamida ishlab chiqarishni yaxshilash imkoniyatlarini oshishi mumkinligi. Sanoat, ayniqsa, uning eng muhim sohasi bo'lgan og'ir sanoat, mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U moddiy-texnika vositalarini o'zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib boradi. Bu jarayonga qanday erishish mumkin yoki kooperatsiyaning fan-texnika taraqqiyotiga qanday aloqasi bor degan o'rinli savol tug'iladi. Sanoat kooperatsiyasida bir necha turli xo'jalik subyektlari aniq bir iqtisodiy faoliyatning tashkil etish uchun birlashadilar shu nuqtada ular mavjud taraqqiy darajasini kooperatsiya

a'zolari o'rtasida taqsimlaydi yoki bo'lishadi va ushbu jarayonda fan-texnika yutuqlari darajasi qolganlarda ham yaxshilanishi kuzatiladi.

Sanoat tarmoqlari o'rtasida kooperatsiya tuzish natijasida resurslarning optimal taqsimotini amalga oshirish imkoniyati ham yuqoridagi afzalliklardan hisoblanadi har bir korxonada kooperatsiyalashuvda o'ziga ma'lum ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish vazifasini oladi bu esa nafaqat resurslar bilan samarali ishlash imkoniyatini beradi balki mehnat taqsimotini ham to'g'ri yo'lga qo'yilishini ta'minlaydi. Natijada, makroiqtisodiy darajada ishchi kuchi dinamikasi yaxshilanadi va ishsizlikning ijtimoiy oqibatlarining oldi olinadi.

³Muallif ishlantmasi

Sanoat tarmoqlari va korxonalarini tuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq jarayonlarni nazariy asoslash uchun birinchi navbatda ushbu yo'nalishda qilingan nazariy ishlarni tahlil etish va amaliyotga tatbiq etish zarurdir. Sanoat tarmoqlari va korxonalar rivojlanish nazariyalari iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan bir necha yo'nalishlarda asoslanadi va shu asosda sanoat tuzilmalari hamda tarmoq munosabatlarining barcha xilma-xilligi ta'kidlanadi.

Hozirda aholi sonini tez fursatlarda oshishi o'z-o'zidan ishlab chiqarishga yuklama beradi bu esa aholi ehtiyojlarini tez fursatlarda ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi bu holatda bozordagi mavjud bir necha korxonalar yuqori ehtiyojni qondira olishi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ishlab chiqarish, tashish va sotish jarayonlari ko'p vaqt talab qiladi va yuqori texnologiyalarni talab etuvchi jarayonlar hisoblanadi. Bu holatda sanoat kooperatsiyasi ushbu muammolarni samarali va o'z vaqtida hal etishga yordam beradi.

Ushbu omillarni hisobga olib yildan yilga yuritimizda xalqaro tajribalarni o'zlashtirgan holatda sanoatni kooperatsiyalashuv jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Buni bevosida qabul qilinayotgan qarorlarda ham ko'rish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1-maydagi PQ-4302-son "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori yoki 2022-yil 24-yanvardagi PQ-99-son "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari" to'g'risida hamda boshqa qaror va farmonlar buni bevosita dalili hisoblanadi.

Bularning barchasi sanoat kooperatsiyasi fenomenini batafsil o'rganish, amaliyotga joriy etish va mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishiga ta'sir darajasini aniqlash zaruriyatini anglatadi.

Yuqorida ta'kidlangan chora-tadbirlarni amalga oshirish miqyosida O'zbekiston va Qozog'iston o'zaro rivojlangan innovatsion yutuqlardan foyalangan holatda sanoat tarmoqlari va korxonalarini kooperatsiyasini kengaytirish va takomillashtirish bo'yicha muhim hisoblangan "Yo'l xaritasi"ni amalga oshirishda ham yutuqlarga erishildi. Bu yo'nalishdagi hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, yangi istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish va tadbirkorlarni birgalikda biznes hamkorlikka jalb etishga o'zaro intilish borligi bildirildi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu tashabbuslar natijasi o'laroq ikkala mamlakatning chegara hududida Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi tashkil qilinishini alohida e'tirof etish mumkin. Ushbu markazning muhim jihatlari yetarlicha bo'lib zarur ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan jihozlanishi rejalashtirilyapti. Uning rezidentlari o'zbekistonlik va qozog'istonlik tadbirkorlarni qo'shma sanoat korxonalarini tashkil etishga jalb qiladigan bir qator imtiyoz va referensiyalarga ega bo'ladi. Ushbu hamkorlik doirasida umumiy qiymati 5,9 milliard dollarga teng bo'lgan qo'shma loyiha va tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha ikki tomonlama bitimlar imzolandi⁴.

Bundan tashqari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarida markaziy osiyoda o'zaro hamkorlik masalalarini yanada jadallashtirish, aniqrog'i, sanoat sohasida qo'shma loyihalarni yo'lga qo'yish – muhim masala sifatida ilgari surilmoqda. Xususan, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish ustivor masala sifatida ko'rilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy qiymat zanjirlarini, shu jumladan, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradigan sanoat va qishloq xo'jaligi klasterlarini yaratish mahalliy tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilarning eksport imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

Masalan, mintaqadagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi hamkorlik meva va sabzavotlarni uchinchi mamlakatlarga eksport qilish uchun tayyor mahsulotga qayta ishlash uchun qo'shma ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mamlakatlarida O'zbekiston eksport salohiyatini oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan sohalarda (elektrotexnika, avtomobilsozlik, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va boshqalar) qo'shma korxonalar va sanoat kooperatsiyalarini tashkil etish amaliyotini davom ettirish muhim amaliyotdir.⁵

Yuqoridagi fikrlarni isbotini amaliyotda to'g'ridan-to'g'ri qo'llagan malakalar tajribasida ko'rish mumkin. Misol tariqasida Amerika sanoatida, masalan, hozirgi kunda 500 mingdan ortiq kichik firmalar faoliyat ko'rsatmoqda va ular mahsulot umumiy hajmining taxminan 40 foizini ishlab chiqaradi. Bu kichik firmalar esa bevosita kooperatsion tarzda katta ishlab chiqarish tarmoqlari, korxonalarini bilan birlashgan holatdan yakuniy iqtisodiy ne'malarni yaratadi.

Ispaniya kichik tadbirkorlik subyektlari ko'plab topiladi. Bu yerda jami korxonalarining 99,7 foizini tashkil qilgan kichik korxonalar yalpi sanoat mahsulotining 70 foizini, eksportning 75 foizini beradi, ularda iqtisodiy faol aholining 85 foizi ish bilan band. Qiziq tarafi shundaki ushbu korxonalarining 90% dan yuqorisi kooperatsiya tarzida birlashgan kichik firmalardir. Bundan shuni xulosa etish mumkinki sanoatni kooperatsiya tarzida ishlashini ta'minlash mamlakatda ishchi kuchini bandligini taminlabgina qolmay xo'jalik yuritish subyektlarini samarali o'sishga yetaklaydi⁶.

Yuqoridagilardan tashqari tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2023-yilning yanvar-mart oylarida 68,4 mlrd. so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o'sishi bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

1-jadval.

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va mahalliyashtirishni qo'llab quvvatlash dasturi asosida qayd etilgan ko'rsatkichlari⁷

	2022-yil yanvar-mart	2023-yil yanvar-mart
Loyihalar soni, birlik	41	10
Korxonalar soni, birlik	22	9
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm	128,3	68,4
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh doll.	1,0	5,9
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	55	5

Ko'rinib turibdiki, sanoat kooperatsiyasi rag'batlantiruvchi rol o'ynaydi. Iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan sanoat kooperatsiyasi

boshqaruv shakli sifatida iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, sanoat kooperatsiyasini

⁴ <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-qozogiston-chegara-hududida-xalqaro-sanoat-kooperatsiyasi-markazi-tashkil-qilinadi>

⁵ <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-qozogiston-chegara-hududida-xalqaro-sanoat-kooperatsiyasi-markazi-tashkil-qilinadi>

⁶ <https://journal.jbnuu.uz/>

⁷ <https://stat.uz/uz/>

rag'batlantirish aholi daromadlarining oshishiga xizmat qilmoqda, chunki kooperativ kompaniyalarning mahsulot hamda xizmatlaridan iste'molchilar soni, shuningdek, kooperatsiya asosida o'z biznesini tashkil eta oladiganlar soni ortib bormoqda.

Hisobot davrida sanoat kooperatsiyasi va mahalliyashtirish bo'yicha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1920,3 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Qo'shma korxonalarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 50,5 foizni tashkil etdi.

2022-yilda mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsion aloqalarni rivojlantirish bo'yicha erishilgan natijalar va 2023-yilgi rejalar to'g'risidagi 2022-yil mahalliyashtirish dasturi doirasida qiymati 21.9 mlrd.so'm bo'lgan 140 turdagi 16 ming 96 dona mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilishi belgilangan bo'lib, amalda qiymati 25.9 mlrd. so'm bo'lgan 140 turdagi 34 ming 195 dona mahsulotlar ishlab chiqarilishi ta'minlandi (rejaga nisbatan 118,3%).

Kooperatsiya aloqalarini kengaytirish bo'yicha yillik reja 154.8 mlrd. so'm etib belgilangan bo'lib, amalda ushbu ko'rsatkich 157.1 mlrd. so'mga bajarildi (belgilangan ko'rsatkichga nisbatan 101,5%).

Importni optimallashtirish yillik hajmi 15.6 mln. dollarga rejalashtirilgan bo'lib, amalda 16.2 mln. dollarga yetkazildi (belgilangan ko'rsatkichga nisbatan 103,6%).

Joriy yilda esa sanoat kooperatsiyasi va mahalliyashtirish dasturi doirasida qiymati 35.0 mlrd.so'm (2022-yilga nisbatan 160 %) bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish hamda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish bo'yicha qiymati 169.1 mlrd. so'm (2022-yilga nisbatan 107,6%) bo'lgan shartnomalar imzolash ko'zda tutilmoqda. 2023-yil davomida mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hamda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hisobiga 17.2 mln.dollar qiymatida importni optimallashtirish rejalashtirilgan.

